

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**NURUMOV DILSHODBEK DJUMABAYEVICH
MATMUROTOV ALIBEK RAVILOVICH**

**ADVOKATURA
(DARSLIK)**

TOSHKENT – 2019

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagи 654-sonli buyrug‘iga asosan nashrغا tavsiya etilgan.

Advokatura darslik // Mas’ul muharrir y.f.n., prof. D. Habibullayev – Toshkent: TDYU, 2019. – 116 bet.

Taqrizchilar:

O. Ganiyev – “YURIST KONSALTING” advokatlik byurosi advokati, yuridik fanlar nomzodi

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasи dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

Ushbu darslikdan advokatura fani tushunchasi, predmeti va tizimi, advokatlik faoliyatining prinsiplari, Advokatlar palatasining huquqiy maqomi, advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi, advokatlik faoliyatining tashkiliy shakkllari, advokat maqomini olish, to‘xtatib turish va tugatish, advokatning kasb etikasi va uning javobgarlik masalalari, fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy, jinoyat sudsulari ishlarini yuritishdagi ishtiroki, shuningdek, har bir mavzuga oid kazuslar, asosiy tushunchalar hamda nazorat uchun savollar o‘rin olgan.

Darslik yuridik kollejlarda ta’lim oluvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, advokatlar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

© D. Nurumov, A. Matmurotov
© Toshkent davlat yuridik universiteti. 2019-y.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
ATAMALAR LUG‘ATI.....	6
I BOB. ADVOKATURA FANI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI.....	10
II BOB. ADVOKATLIK FAOLIYATI KAFOLATLARI VA ADVOKATLARNING IJTIMOIY HIMOYASI.....	25
III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATLIK FAOLIYATINING TASHKILIY SHAKLLARI.....	35
IV BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADVOKATLAR PALATASINING HUQUQIY MAQOMI.....	45
V BOB. ADVOKAT MAQOMINI OLISH, TO‘XTATIB TURISH VA TUGATISH.....	53
VI BOB. ADVOKATNING KASB ETIKASI VA UNING JAVOBGARLIK MASALALARI.....	65
VII BOB. ADVOKATNING FUQAROLIK SUDI ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI.....	87
VIII BOB. ADVOKATNING IQTISODIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI.....	94
IX BOB. ADVOKATNING MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI.....	101
X BOB. ADVOKATNING JINOYAT SUDI ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI.....	109
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	119

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turli sohalardagi kabi sud-huquq tizimida ham keng ko‘lamli islohotlar amalgalashirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining asosiy maqsadi yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan yuridik kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ta’lim tizimida faqat yurisprudensiya sohasining nazariyasini o‘rganish bilan cheklanib qolmasdan, yosh mutaxassislarda amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakkantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa o‘quvchilar uchun zamonaviy, yangi avlodga mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlari yaratishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan, yuridik kollejlarning o‘quv-metodik jarayonini muvofiqlashtirish, ularga amaliy va axborot-resurslari jihatidan ko‘maklashish Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda TDYuU deb yuritiladi), ularning faoliyatiga rahbarlik qilish va nazoratini tashkil etish hamda tashkiliy kadrlar bazasini mustahkamlash esa hududiy adliya organlari tomonidan amalgalashirilishi belgilangan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik kollejlarida o‘qishni tashkil qilish choralarini to‘g‘risida”gi 858-son qarori qabul qilingan bo‘lib, ushbu qaror bilan yuridik kollejlar uchun mo‘ljallangan yangi avlod darsliklari, maxsus o‘quv-metodik adabiyotlar yaratish bo‘yicha ishlarni tashkil etish vazifasi yuklangan. **Kimga yuklangan???**

2018-yil 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF–5441-son farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga asosan, advokatura tizimini tubdan takomillashtirish, professional yuridik yordam sifati va advokatlik kasbining nufuzini oshirish, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab qo‘yildi.

Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O‘RQ–497-sonli qonuni qabul qilinib, ushbu o‘zgartirish va qo‘srimchalarga asosan, advokatura instituti va advokatlik faoliyatining huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish kafolatlari kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik kollejlari yangi tashkil etilgan bo‘lib, ularni zamonaviy, yangi avlod uchun mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash zarur. Mazkur darslik 2019-yil 1-yanvar kuniga qadar bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarni hisobga olgan holda yaratildi.

Darslik yuridik kollejlarda ta’lim oluvchi o‘quvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, advokatlar, shuningdek, advokatura institutiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

ATAMALAR LUG'ATI

ADVOKATURA – bu tushuncha bir nechta ma'nolarga ega:

1) fuqarolik jamiyati instituti;

2) advokat huquqlari va majburiyatlari barcha me'yorlarini muvofiqlashtiruvchi; advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchisi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, professional birlashmalari uning huquqiy maqomi, advokatlar hay'ati, maslahatxonalari, firma va byurolarini tashkil qilish va faoliyatini yuritish tartiblarini belgilovchi kompleks huquqiy institut.

ADVOKATLIK FAOLIYATI – advokatning jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha professional faoliyati.

ADVOKAT – qonunda belgilangan tartibda advokat maqomi va advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini olgan shaxs.

ADVOKAT-SHERIK – advokat, advokatlik firmasining hammuassisi.

ADVOKATLIK SIRI (rasman) – ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs)ning advokat yordamiga murojaat qilganligi fakti, ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) yordam so'rab murojaat qilgan masalalar, ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) advokatdan olgan maslahatlar, maslahatlar va tushuntirishlar mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) bilan suhbatlari mazmuniga oid barcha boshqa ma'lumotlar.

ADVOKATLIK FIRMASI – sheriklikka asoslangan va advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ta'sis etilgan notijorat tashkilot hisoblanadigan advokatlik tuzilmasi.

ADVOKAT SO'ROVI – advokatning yuridik ko‘mak ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni davlat idoralari, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan olish uchun yozma murojaati.

ADVOKATLIK IMMUNITETI – advokat shaxsining daxlsizligi, advokat faoliyatiga aralashmaslik, shuningdek, ushbu faoliyatning muhofaza qilinishini kafolatlovchi huquqiy normalar.

ADVOKATLIK BYUROSI – advokat tomonidan individual advokatlik faoliyatini yuritish uchun ta’sis etilgan notijorat tashkilot hisoblanadigan advokatlik tuzilmasi.

ADVOKATNING INTIZOMIY JAVOBGARLIGI – yuridik javobgarlik chorasi bo‘lib, u advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik talablari, Advokatlar professional etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilishining huquqiy oqibati sanaladi.

ISHONCH BILDIRUVCHI – professional yuridik yordam so‘rab advokatlik tuzilmasiga murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

MALAKA KOMISSIYASI – Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshida zarur bilimlar va kasbiy ko‘nikmalarga ega shaxslarga litsenziyalar berish, advokat qasamyodini qabul qilish maqsadida, shuningdek, advokatlarga nisbatan intizomiy choralar ko‘rish uchun tuzilgan komissiya.

ADVOKATLAR HAY’ATI – advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ta’sis etilgan, a’zolikka asoslangan, notijorat tashkilot bo‘lmish advokatlik tuzilmasi.

ADVOKATLAR KONFERENSIYASI – O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining oliy organi.

MANFAATLAR TO‘QNASHUVI (ilm.) – shunday holatki, unda advokatning manfaatlari ishonch bildiruvchining manfaatlariga zid bo‘ladi. Bu advokatlik xizmatlari ko‘rsatilishining ilojsiz ekanligiga olib keladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADVOKATLAR PALATASI – O‘zbekiston Respublikasidagi barcha advokatlarning majburiy a’zoligiga asoslangan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil etiladigan hududiy boshqarmalar bilan birga yagona advokatura tizimini tuzadigan notijorat tashkilot.

SHERIKLIK SHARTNOMASI – advokatlik firmasining ta’sis hujjati bo‘lib, advokatlar tomonidan oddiy yozma shaklda tuziladi. Sheriklik shartnomasiga ko‘ra, advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun o‘z sa’y-harakatlarini birlashtirish majburiyatini oladi.

BOSHQARUV – Advokatlar palatasining ijroiya organi bo‘lib, advokatlar ichidan saylanadi va Palataning joriy faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi.

ADVOKAT YORDAMCHISI – yuridik ma’lumotga ega, advokatlik tuzilmasi, xizmatchisi bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi. U advokatning ko‘rsatmasiga ko‘ra, advokat yuritayotgan ishlar bo‘yicha topshiriqlarni bajaradi (advokatning protsessual vakolatlariga tegishli ishlar bundan mustasno).

ADVOKAT KASB ETIKASI QOIDALARI – 2013-yil 27-sentabr kunidagi O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasida qabul qilingan kasbiy majburiyatlarni bajarishda, shuningdek, ishonch bildiruvchi, advokatlar, advokatlik o‘zini o‘zi boshqarish idoralari, davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish idoralari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda advokat shaxsi va

uning xatti-harakatlariga nisbatan talablarni belgilovchi qoidalar majmuyi.

YURIDIK YORDAM KO'RSATISH TO'G'RISIDAGI KELISHUV – ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) va advokat o'rtaida oddiy yozma shaklda tuziladigan, bevosita ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) yoki u tayinlagan shaxsga yuridik yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan fuqarolik-huquqiy shartnoma.

ADVOKAT STAJYORI – oliy yuridik ma'lumotga ega, advokatlik tuzilmasiga qonunda belgilangan tartibda stajirovka o'tash uchun keladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

YURIDIK MASLAHAT – ushbu tushuncha ikki ma'noni anglatadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan advokatlik tuzilmasi;
- 2) advokat tomonidan huquqiy masalalar bo'yicha og'zaki yoki yozma tushuntirishlar berishdan iborat advokatlik faoliyati turi.

I BOB. ADVOKATURA FANI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI

1. Advokatura va advokatlik faoliyati tushunchasi, maqsadi va vazifalari

Advokatura lotin tilidagi “advocatus” so‘zidan olingen bo‘lib, sudda ish yurituvchi, himoyani amalga oshiruvchi ma’nosini bildiradi.

Advokatura – huquqiy institut bo‘lib, u advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi.

Advokatura O‘zbekiston Respublikasidagi fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri va huquqiy davlat tiziminining elementi bo‘lib, usiz jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash ilojsizdir.

Yaqin vaqtarga qadar o‘quv dasturlarida advokatura, sud va huquqni muhofaza qilish idoralariga kam e’tibor berilardi. Jamiyat ongida saqlanib qolgan advokatura – bu obro‘liroq idoralar (prokuratura, sud)da ish topa olmagan yuristlarning unchalik obro‘li bo‘lmagan, ikkinchi darajali kasbi, degan fikr, baxtimizga, huquq ijodkorligi, qonunchilik bazasi va huquqni qo‘llash amaliyotidagi o‘zgarishlar ta’sirida asta-sekin o‘zgarib bormoqda.

Shunday bo‘lsa ham, “Sud va huquqni muhofaza qilish idoralar”, “Jinoiy-protsessual huquq”, “Fuqarolik-protsessual huquq” va “Prokuror nazorati” fanlari doirasida advokatlik faoliyati masalasini o‘rganish bo‘lajak yuristlarda himoya funksiyasiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli mustaqil “Advokatura” fanini o‘qitish muhim ahamiyatga ega.

Masalani yanada chuqurroq tushunish uchun, avvalo, advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik predmetini tashkil qiluvchi

munosabatlar va ularni muvofiqlashtirish uslublarini tahlil etish zarur.

Ma'lumki, huquqiy tartibga solish – bu ijtimoiy hayotdagि yuridik ahamiyatga ega omillar va jarayonlar bo'lib, ular huquqning boshqaruvchilik salohiyati, ya'ni huquqiy me'yorlarning tartibga soluvchi harakatlari yo'naltirilgan maqsadni o'zlarida his etadi (yoki his etishi lozim).

Advokatura vazifalari “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 1-moddasida belgilab berilgan – “Advokatura O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi”. Boshqacha aytganda, advokatura oldiga barcha jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovni amalga oshirish, qonunga rioya etilishi va uning mustahkamlanishi, fuqarolarning qonunlarni aniq va so‘zsiz bajarish, boshqa shaxslar huquqlari, obro‘sni va qadriga hurmat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashish vazifasi qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Advokatura to‘g‘risida”gi, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksi, Fuqarolik-protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Advokatlik faoliyati deyilganda, qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq, erkinlik va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularga ko‘rsatiladigan yuqori malakali yuridik yordam tushuniladi.

Advokat. Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin.

Advokat nafaqat jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qiladi, balki fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritishda jismoniy shaxslarning huquqlari hamda yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishda professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs hisoblanadi.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Advokat quyidagilardan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas:

- ilmiy va pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi (bundan buyon matnda Advokatlar palatasi deb yuritiladi) va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat;
- patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat;
- shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat;
- hakamlik sndlari va xalqaro tijorat arbitrajlari (sndlari)da sudyu sifatidagi faoliyat.

Advokatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Advokat o'z professional faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi, o'ziga yuridik yordam so'rab murojaat etgan jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va

qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi shart.

– Advokat muayyan ish bo'yicha yuridik yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko'rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so'rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan yoki u sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruv o'tkazuvchi shaxs, jamoat ayblovchisi, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis; jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar, fuqaroviylar javobgarning vakili, guvoh, xolis, tarjimon sifatida ishtirok etgan hollarda, shuningdek, agar ishni dastlabki tergov qilishda yoxud sudda advokatning qarindoshi bo'lgan mansabdon shaxs ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan bo'lsa, xuddi shuningdek, agar advokat bevosita yoki bilvosita shu ishdan shaxsan manfaatdon bo'lsa, bu hol unga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid kelsa, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emas.

– Advokat qaysi shaxsning manfaatlarini himoya qilish topshirig'ini olgan bo'lsa, o'z vakolatlaridan shu shaxsning zarariga foydalanish hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini himoya qilishdan bosh tortish, agar uni bundan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning o'zi ozod etmasa, haqli emas.

– Advokat o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, Advokatlar palatasi tomonidan belgilangan tartibda uch yilda kamida bir marta kasbiy malakasini oshirishi shart.

– Jinoyat ishida ishtirok etishga tayinlangan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emas.

– Advokat davlat xizmatida turishi mumkin emas.

– Jismoniy va yuridik shaxsler nomidan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq bitimlar tayyorlanganda hamda amalga oshirilganda, advokatlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi

kurashish bilan bog‘liq axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi (O‘zbekiston Respublikasining Advokatura to‘g‘risidagi qonuni 7-moddasi).

Advokatura faoliyatining prinsiplari.

Advokatura o‘z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshiradi.

Belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxs advokatlik faoliyatini o‘z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda amalga oshirish yoxud boshqa advokatlar (sheriklar) bilan advokatlik firmasi yoki a‘zolikka asoslangan advokatlar hay’atini tuzish yoxud faoliyat ko‘rsatayotgan shunday advokatlik tuzilmalaridan biriga kirish yoki yuridik maslahatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga haqli. Advokat o‘z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga oshirishi mumkin.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay’atlari ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarini hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Advokatlik tuzilmalarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, tuzilmasi, shtatlari, vazifalari, mablag‘larni sarflash tartibi, rahbar organlarining vakolatlari, ularni saylash tartibi hamda advokatlik tuzilmalari faoliyatiga taalluqli boshqa masalalar ularning ustavlari (nizomlari) va ta’sis shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay’atlari ular ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e’tiboran yuridik shaxs maqomini oladi. Yuridik maslahatxona hisobga olingan kundan e’tiboran o‘z faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Advokatlik firmasi yoki advokatlar hay’atining joylashgan yeri yashash uchun mo‘ljallanmagan joyda bo‘lishi kerak.

Advokatlik byuolarini ta'sis etgan advokatlar o'z faoliyatini mulk huquqi yoki boshqa qonuniy asosda o'zlariga tegishli bo'lgan turar joylarda amalga oshirishi mumkin. Bunda advokatga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylarni advokatlik byurosini faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylar toifasiga o'tkazish talab qilinmaydi.

Advokatlik tuzilmalari fuqarolar va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatganlik uchun ulardan tushadigan pul mablag'lari (daromadlar) hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan ta'minot oladi.

Advokatlar advokatlarning jamoat birlashmalarini tuzishi mumkin.

Advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati O'zbekiston Respublikasi hududida hamda chet davlatlarda ushbu davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq o'zining alohida bo'linmalarini (vakolatxonalari va filiallarini) tashkil etishga haqli. Bunda advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati alohida bo'linmani ochish to'g'risidagi qarori haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organni oldindan xabardor qiladi (O'zbekiston Respublikasining Advokatura to'g'risidagi qonuni 4-modda).

Advokatlik faoliyati tushunchasini tahlil qilish bu faoliyatning qator belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Jumladan:

1) advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam malakali bo'ladi, chunki u oliy yuridik ma'lumotga, shuningdek, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yil mehnat stajiga ega, jumladan, advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o'tgan va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'zda tutiladiki, mazkur shaxs yetarlicha yuqori (malakali) darajada yuridik yordam ko'rsata oladigan mutaxassis bo'ladi. Ushbu belgiga ko'ra, advokatlik faoliyati ishonch bildiruvchining qarindoshlari, oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega

bo‘lмаган, binobarin, mutaxassis bo‘lмаган va zarur malakaga ega bo‘lмаган boshqa shaxslar ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yordamdan farqlanadi. Bundan tashqari, advokatlik faoliyati – bu aynan yuridik yordam bo‘lib, iqtisodiy yoki moliyaviy masalalar bo‘yicha konsultatsiyalar, tashkiliy, texnik va ma’muriy harakatlarni o‘z ichiga olmaydi;

2) yuridik yordam doimiy professional asosda ko‘rsatiladi. Bu shuni anglatadiki, advokat uchun bu asosiy faoliyat turi, uning “kasbi”. U boshqa pul to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanish (**ilmiy, o‘qituvchilik**, ijodiy faoliyat bundan mustasno), jumladan, ishchi sifatida mehnat munosabatlariga kirishish, shuningdek, davlat mansablarini egallash huquqiga ega emas;

3) yuridik yordam ko‘rsatish subyekti faqat advokat bo‘ladi. Ushbu belgiga ko‘ra, advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam boshqa, yuridik shaxslar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari, notariuslar, patent ishonch bildirilganlar yoki qonun bilan o‘z kasbiy faoliyatini yuritishga maxsus vakolat berilgan, qonunga muvofiq vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqa shaxslar ko‘rsatuvchi o‘xshash yordamdan farqlanadi. Advokatlik faoliyatini faqat advokatlik tuzilmasidagi advokat amalga oshirishi mumkin;

4) yuridik yordam ko‘rsatish maqsadi – jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoyalash, shuningdek, adolatli sudlovdan foydalanishni ta’minlash. Advokatlik faoliyati tizimli ravishda foyda olishga qaratilmaydi. Advokat oladigan mukofot – bu foyda emas, mehnati (xizmati)ning haqidir;

5) yuridik yordam advokat va ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi kelishuv asosida ko‘rsatiladi. Advokat kelishuv tuzmay yuridik yordam ko‘rsatish huquqiga ega emas. Jinoiy sud ishida dastlabki tergov organlari yoki sudning tayinlashi bo‘yicha advokat himoyachi sifatida qatnashishi holatlari bu qoidadan mustasnodir;

6) hakamlik sudi va xalqaro tijorat arbitraji (sudi)da vakillikni amalga oshiradi.

Advokat qonun hujjatlarida man etilmagan boshqa turdag'i yuridik yordam ko'rsatishi ham mumkin.

Advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog'ida quyidagi huquqlarga ega:

tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergovni o'tkazish va ishni sudda ko'rib chiqish chog'ida yoki ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlar va boshqa vakolatli organlarda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ish yoki jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yilishi, shuningdek, albatta, baholanishi lozim bo'lgan dalillarni toplash va taqdim etish;

yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'rالgan hujjatlar yoki ularning tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishi shart bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar hamda boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning ma'lumotnomasi-maslahatlarini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish;

ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish;

to'plangan materiallarni o'z ishonch bildiruvchi shaxsi (himoya ostidagi shaxs)ning ishi yuzasidan ish yuritayotgan sudlar va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

advokat yuridik yordam ko'rsatayotgan ishdagi zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari

yordamida o‘z hisobidan nusxalar olish yoki ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish, bunda davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o‘z ichiga olgan axborotni oshkor qilmaslik;

ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan maxfiylik ta’minlanadigan sharoitlarda (shu jumladan, uni qamoqda saqlab turish davrida) uchrashuvlarning soni, davomiyligi cheklanmagan holda hamda ishni yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning ruxsatisiz xoli uchrashish;

mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bildirish va shikoyatlar berish hamda ulardan yozma shaklda asoslantirilgan javoblar olish;

o‘zining kasbga oid mulkiy javobgarlik xavfini sug‘urta qilish; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa harakatlarni bajarish.

O‘zbekiston Respublikasida advokat yordamchi olish huquqiga ega hisoblanadi va bu O‘zbekiston Respublikasi Advokatura to‘g‘risidagi Qonunda belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 8-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasining yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan fuqarosi advokat yordamchisi bo‘lishi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxs advokat yordamchisi bo‘lishi mumkin emas.

Advokat yordamchisi advokat huquqlariga ega bo‘lmaydi hamda uning surishtiruv, dastlabki tergov organlari, sudlar va boshqa davlat organlarida ishlarni olib borishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Advokat yordamchisi advokat ko‘rsatmasiga binoan advokat yurituvidagi ishlar bo‘yicha topshiriqlarni bajaradi (advokatning protsessual vakolatlariga taalluqli ishlar bundan mustasno).

Advokat yordamchisining mehnat sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.

Advokat yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni **8¹-moddasida** advokat **stajyor** olish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Advokat stajyori. Kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lgan advokat stajyorga ega bo‘lishga haqli.

Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs advokatning stajyori bo‘lishi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs advokatning stajyori bo‘lishi mumkin emas.

Stajirovka advokatlik tuzilmasida o‘taladi. Advokatning stajyori o‘z faoliyatini advokat rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Stajyor advokatlik faoliyati bilan mustaqil ravishda shug‘ullanishga haqli emas.

Advokat stajyorining mehnat sharoitlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan mehnat shartnomasi bilan belgilanadi.

Advokatlik faoliyati advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o‘rtasida tuziladigan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitim (shartnomasi) asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydag‘i “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-son farmonida advokatlarning jismoniy va yuridik shaxslar huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish uchun turli tashkilotlarga yo‘llayotgan so‘rovlari ko‘p hollarda, eng avvalo,

davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda, advokatning so'rovini ko'rib chiqishning aniq tartibi va muddatlari, bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborotni taqdim etganlik uchun javobgarlik belgilanmaganligi ko'rsatib o'tilgan edi va advokatlik so'rovi yuzasidan aniq muddatlar belgilab qo'yildi. Advokatura to'g'risidagi qonunning 7¹– moddasiga ko'ra, advokat davlat organlari va boshqa organlarga, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga mazkur organlar hamda tashkilotlarning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan advokat tomonidan malakali yuridik yordam ko'rsatilishi uchun zarur bo'lган ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni (bundan buyon matnda axborot (hujjatlar) deb yuritiladi) taqdim etish masalalari yuzasidan advokat so'rovini (bundan buyon matnda advokat so'rovi deb yuritiladi) yuborishga haqliligi ko'rsatib o'tilgan.

Axborot (hujjatlar), shuningdek, ularning ko'chirma nusxalari advokat so'rovi olingen sanadan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay taqdim etiladi.

Agar davlat organi yoki boshqa organ, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilot so'ralayotgan axborot (hujjatlar)ga ega bo'lmasa, ular o'zlariga murojaat etgan advokatga so'rov olingen sanadan e'tiboran besh kundan kechiktirmay bu haqda xabar qilishi shart.

Advokat tomonidan ish bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi boshlanganligi to'g'risida dalolat beradigan hujjat taqdim etilgan taqdirda, so'rovda ko'rsatilgan axborot (hujjatlar) uch ish kunidan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

Advokat so'rovida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

so'rov yuborilayotgan davlat organi yoki boshqa organ, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilot nomi va pochta manzili;

advokatning familiyasi, ismi, otasining ismi;

advokat o'z faoliyatini amalga oshirayotgan advokatlik tuzilmasining nomi, pochta manzili, elektron pochta manzili, telefon raqami;

advokat so‘rovini qayd etish daftaridagi advokat so‘rovining ro‘yxatdan o‘tkazilganlik raqami va sanasi;

advokat kimning manfaatlarini ko‘zlab harakat qilayotgan bo‘lsa, o‘sha jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki yuridik shaxsning nomi;

yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan axborot (hujjatlar);

so‘ralayotgan axborot (hujjatlar)ni berish usuli (pochta jo‘natmasi, faksimil aloqa, elektron pochta, bevosita topshirish);

advokatning imzosi.

Advokat so‘roviga orderning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Agar advokatlik so‘rovini olgan subyekt so‘ralayotgan axborot (hujjatlar)ga ega bo‘lmasa yoki ma’lumotlarda davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir mavjud bo‘lsa, shuningdek, advokat so‘rovida ushbu moddaning beshinchi va oltinchi qismlarida nazarda utilgan axborot (hujjatlar) ko‘rsatilmagan bo‘lsa, so‘ralayotgan axborot (hujjatlar)ni advokatga taqdim etish rad etilishi mumkin.

Advokat so‘rovi advokatlik siriga rioya etilgan holda axborot tizimi orqali elektron shaklda ham berilishi mumkin.

Advokat so‘roviga axborot (hujjatlar)ni taqdim etmaslik, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot (hujjatlar) taqdim etganlik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

2. “Advokatura” fani tushunchasi, mazmuni va tizimi

“Advokatura” fani tushunchasi – advokatura huquqiy institutining tashkil etilishi va faoliyati, huquqiy asoslari hamda ushbu faoliyatning asosiy yo‘nalishlari, advokatlik faoliyatining prinsiplari, advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi, advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari, advokat maqomini olish, to‘xtatib turish va tugatish, advokatning

kasb etikasi va ularning javobgarligi kabi masalalarни о‘рганувчи fan hisoblanadi.

“Advokatura” fanining maqsadi – o‘quvchilarda O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari to‘g‘risida, advokatlik faoliyati tashkiliy huquqiy shakllari va advokatlik maqomi kabi bilimlarni shakllantirishdan iborat.

“Advokatura” fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarga advokat maqomini olish tartibi, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani berish, uning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish, advokatlik faoliyati kafolatlari, advokatning huquq va majburiyatlar hamda advokatlik faoliyati bilan bog‘liq boshqa qonun hujjatlari to‘g‘risida bilim berish;
- o‘quvchilarda advokatlik faoliyatining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

“Advokatura” fanining predmeti – advokatura va advokatlik faoliyatining huquqiy, tashkiliy asoslari kabi masalalarни o‘rganish, o‘quvchilarda advokatlik faoliyatining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Advokatura fani ikki qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagilar:

- umumiy qism;
- maxsus qism.

Darslikning umumiy qismi quyidagi mavzularni qamrab oladi:

- advokatura fani tushunchasi, predmeti va tizimi;
- advokatlar palatasining huquqiy maqomi;
- advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi;
- advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari;
- advokat maqomini olish, to‘xtatib turish va tugatish;
- advokatning kasb etikasi va javobgarlik masalalari.

Maxsus qismga quyidagi mavzular kiritilgan:

- advokatning fuqarolik sudi ishlarini yuritishdagi ishtiroki;
- advokatning iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi ishtiroki;

- advokatning ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi ishtiroki;
- advokatning jinoyat sudi ishlarini yuritishdagi ishtiroki.

Advokatura fani boshqa bir qator yuridik fanlar bilan yaqindan aloqadordir. Xususan, fuqarolik huquqi fanida bitimlar doirasida advokat va ishonch bildiruvchilar o'rtasidagi munosabatlар shakllari, shaxsni himoya qilishning fuqarolik-huquqiy vositalari o'rganiladi.

Fuqarolik protsessida fuqarolik sudlov ishlarini yuritishda advokatning ishtiroki bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi doirasida jinoyat ishlari bo'yicha himoyani tashkil etish va jabrlanuvchi, guvohga yuridik yordam ko'rsatish asoslari o'rganiladi.

Jinoyat-ijroiya huquqi doirasida mahkumlarning yuridik yordam olish huquqini ta'minlash bilan bog'liq masalalar o'rganiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Advokatura va advokatlik faoliyati tushunchasi, maqsadi va vazifalari.
2. Advokatlik faoliyatining prinsiplari.
3. "Advokatura" fani tushunchasi, mazmuni va tizimi.
4. O'quv fanining boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.

KAZUSLAR

1-kazus

Advokat Mahmudov bilimli, aqli va ishbilarmon advokat sifatida mashhur edi. Shaharning o'ziga to'q, boy va taniqli insonlari unga tez-tez murojaat qilishardi. Bir safar, katta mansabdor shaxsga qarshi qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha himoyachi sifatida ishtirok etayotgan vaqtida, Mahmudovda o'zining shaxsiy ishlari bilan Samarcand shahriga jo'nashi zarurati paydo bo'ldi. Sudya ishni ko'rib chiqishni boshqa muddatga qoldirish haqidagi iltimosini qanoatlantirmagani sababli advokat bir

hiyla o‘ylab topdi. Ko‘pchilik uning boshqa sohada faoliyat yuritadigan Teshavoy ismli ukasi borligidan bexabar edi.

Mahmudov ukasidan sud majlisida uning o‘rniga ishtirok etishini iltimos qilib, ish bo‘yicha qisqacha nimani so‘zlashini o‘rgatdi. Sud majlisida sud kotibi advokatning shaxsan tanishi bo‘lganligi sababli ukasining shaxsini tasdiqlovchi hujjatini tekshirmadi. Shu bilan birga, jinoyat ishini ko‘rib chiqishda sud tomonidan tergovda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun talablari qo‘pol ravishda buzilgani aniqlandi. Natijada advokat Mahmudovning ukasi ishda yutib chiqdi, sudlanuvchi esa oqlandi.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura” to‘g‘risidagi qonunida advokatlik siri berilgan bo‘lib, advokat, advokat yordamchisi, advokat stajyori, advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo‘lmish ma’lumotlarni oshkor etishi va bu ma’lumotlardan o‘z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanishi man etilishi belgilangan.

Mazkur normani quyidagi savollar orqali sharhlang.

- 1. Advokatlik siriga nimalar kiradi?**
- 2. Advokatlar byurolari, hay’atlari, firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlariga kimlar kiradi?**
- 3. “Advokatlik siri bo‘lmish ma’lumotlardan uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanish man etiladi” jumlasiga tushuntirish bering.**

II BOB. ADVOKATLIK FAOLIYATI KAFOLATLARI VA ADVOKATLARNING IJTIMOIY HIMOYASI

O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabr kuni qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni va 1998-yil 25-dekabr kuni “Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunida belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, davlat tomonidan unga advokatlik faoliyati kafolatlari berilishi hamda ijtimoiy himoyalanishi orqali advokatning mustaqilligi ta’minlanadi.

Advokatning kasbga oid huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati qonun bilan qo‘riqlanadi. Advokatlarning kasbiy faoliyatiga u yoki bu tarzda bevosita yoki bilvosita aralashish, ular o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganda olgan muayyan ma’lumotlarni oshkor etishni talab qilish, shuningdek, advokatlar birlashmalarining mansabdor shaxslari va texnik xodimlaridan xuddi shunday ma’lumotlarni talab qilish taqiqланади. Advokat o‘z kasbiy vazifalarini bajarayotganda, unga biror-bir shaklda ta’sir o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaydi.

Advokat himoyachilik yoki vakillik vazifasini bajarayotganda, o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan tafsilotlar yuzasidan guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas.

Advokatning kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan qo‘lga kiritgan advokatlik dalillari (ashyolari), hujjatlari undan olib qo‘yilishi yoki ko‘zdan kechirilishi mumkin emas. Shuningdek, uning o‘zi yuridik yordam ko‘rsatayotgan shaxslar bilan uchrashish huquqi cheklanishi mumkin emas.

Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnomasi kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas.

Advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo'llash bilan qo'rqtish mumkin emas.

Advokatga nisbatan jinoiy ish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrda qabul qilingan O'RQ-497-sonli qonuniga asosan, endilikda sudning advokatni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish to'g'risidagi ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda, sudya bir sutka ichida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar palatasini yozma shaklda xabardor qilishi lozimligi belgilab qo'yildi.

Advokatlik faoliyatining kafolatlari advokatlik siri bilan ham bog'liq bo'lib, unga ko'ra advokat advokatlik sirini saqlashi shart. Advokatlik siri jumlasiga ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatdan yordam so'rab murojaat etganligining o'zi, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) yordam so'rab murojaat etgan masalalar, advokatdan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) olgan maslahatlar, nasihatlar va tushuntirishlarning mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan o'tkazgan suhbatida to'xtab o'tilgan barcha masalalar kiradi.

Advokat, advokat yordamchisi, advokat stajyori, advokatlar byurolari, hay'atlari, firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo'lmissiz ma'lumotlarni oshkor etishi

va bu ma'lumotlardan o'z manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida foydalanishi man etiladi.

Shu bilan birga, advokatning daxlsizligi ham uning kafolatlaridan biri hisoblanib, qonun mazmun-mohiyatiga ko'ra advokatning shaxsi daxlsiz. Advokatning daxlsizligi uning uy-joyi, xizmat xonasi, foydalanishidagi transporti va aloqa vositalari, uning xat-xabarlari, unga tegishli ashyo va hujjatlarga ham taalluqlidir.

Advokatga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Advokatning uy-joyi yoki xizmat xonasi, shaxsiy yoki foydalanishidagi transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish, uning telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, advokatni ko'zdan kechirish va shaxsiy tintuvdan o'tkazish, xuddi shuningdek, uning pochta-telegraf jo'natmalarini, unga tegishli ashyo va hujjatlarni ko'zdan kechirish yoki olib qo'yish, advokatni majburiy keltirish, ushlab turish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning sanksiyasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi advokatga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat prokurorlari, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga ko'ra jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Advokatning ish bo'yicha huquqiy nuqtai nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnomasi kiritishi, shuningdek, sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas.

Advokatga yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko'rsatganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va

boshqa javobgarlikka tortish yoki unga shunday javobgarlikka tortish bilan tahdid qilish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydag‘i “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-son farmonida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasiga zamonaviy talablar, mazkur farmonning maqsad va vazifalariga muvofiq advokatura faoliyatining kafolatlarini amalda ta‘minlash, advokatlik tuzilmalari va advokatlarning huquqlarini himoya qilish, ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida qonuniy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratgan holda o‘z ishini qayta yo‘naltirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish tavsiya etilgan.

Bundan tashqari, farmonda surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari advokatlik faoliyatiga har qanday shakllarda, shu jumladan, ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi) shaxs bilan uchrashish huquqini cheklash orqali to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi ogohlantirilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi aybdor mansabdor shaxslarga, avvalo, surishtiruv va dastlabki tergov organlari mansabdor shaxslariga eng qat’iy javobgarlik choralarini ko‘rgan holda advokatlik faoliyati kafolatlarini to‘g‘risidagi qonunlarning so‘zsiz ijro etilishi ustidan prokurorlik nazoratini kuchaytirish belgilangan.

Advokat davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha barcha nafaqa turlarini olish huquqidan foydalanadi. Davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdordorda to‘lanadi.

Advokatga davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar belgilash va to‘lash, uning davlat pensiya ta‘minoti va jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Advokatga davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqlar belgilash va to‘lash, uning davlat pensiya ta’minoti va jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti haqida to‘liq ma’lumot olish uchun O‘zbekiston Respublikasining **“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”** va **“Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunlarini o‘qish tavsiya qilinadi.**

Advokatning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish.

Advokatning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish borasida Hududiy boshqarma tomonidan respublikamizda ro‘yxatdan o‘tgan advokatlik tuzilmalari rahbarlariga Mehnat kodeksining 282-moddasiga asosan, barcha xodimlar davlat yo‘li bilan ijtimoiy sug‘urta qilinishi lozimligi, “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasiga asosan, xodimning o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchi o‘z fuqarolik javobgarligini ushbu qonunda belgilangan shartlar asosida va tartibda sug‘ortalashi shartligi tushuntirilgan holda tegishli ko‘rsatmalar berilgan. Shuningdek, mazkur qonunning 17-moddasiga asosan, ish beruvchi o‘zi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan yoki ish beruvchilar – jismoniy shaxslar uchun mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzilgan sanadan e’tiboran o‘n besh ish kunidan kechiktirmay o‘zining fuqarolik javobgarligini ushbu qonunga muvofiq sug‘ortalashi lozimligi haqida ham ko‘rsatma xatlari yuborilgan.

Bundan tashqari, hududiy boshqarma tomonidan barcha advokatlik tuzilmalarida Palata raisining 2013-yil 30-dekabrdagi 7-um-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlik palatasida mehnatni muhofaza qilish qoidalari”ga rioya

etilishi ahvolini muntazam o‘rganib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Advokatlarning o‘z mablag‘laridan foydalanishida qonun hujjalariiga rioya etish amaliyoti.

Advokatura sohasida advokatlar va advokatlik tuzilmalarini soliqqa tortishga oid qonunchilik normalarini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ayrim masalalar uchrab turadi. Soliq kodeksining 391-va 392-moddalarida advokatlik tuzilmalari hamda advokatlardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrлari hamda 2020-2021-yillarga budget mo‘ljallari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, bugungi kunda ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun jismoniy va yuridik shaxslardan advokatlik tuzilmalariga kelib tushgan mablag‘lardan advokatlik tuzilmalari orqali quyidagi soliqlar va majburiy to‘lovlar to‘lanadi:

a) advokatlik tuzilmalariga ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun kelib tushgan mablag‘lardan advokatga mehnat haqi sifatida to‘lanadigan summadan kelib chiqib jismoniy shaxslarning daromad solig‘i 12%;

b) advokatga mehnat haqi sifatida to‘lanadigan summaning 25% miqdoridagi yagona ijtimoiy to‘lov;

v) ilgari advokatga mehnat haqi sifatida to‘lanadigan summaning 7,5% miqdoridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badalini to‘lash bekor qilindi;

g) advokatga mehnat haqi sifatida to‘lanadigan summaning 0,1% miqdoridagi individual jamg‘arib boriladigan pensiya fondi tizim bo‘yicha ajratmalar ajratish tartibiga ham o‘zgartirish kiritildi;

Yuqorida sanab o‘tilgan soliqlar va majburiy to‘lovlardan kelib chiqqan holda, advokatga mehnat haqi sifatida to‘lanadigan summasidan ushlab qolinadigan soliq yukining pasayishi natijasida

advokatning ish haqini ko‘tarishning imkoniyati vujudga keldi. Ushbu kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida advokatning moddiy manfaatdorligi oshirilishi bilan bir vaqtida boshqa yuridik shaxslarning, jumladan, auditorlik kompaniyalari, soliq bo‘yicha konsalting firmalari va boshqa soliq bo‘yicha konsultantlar xizmatlar ko‘rsatuvchi professional tashkilotlarga tenglashtirilishi natijasida ijtimoiy adolat o‘rnatalishiga imkoniyat yaratildi.

Sanab o‘tilgan majburiy va soliq to‘lovlaridan tashqari, ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun to‘langan mablag‘larning bir qismi advokatlik tuzilmalarini saqlashga sarflanadi. Mazkur mablag‘larning miqdori har bir advokatlik tuzilmasi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Bu pul mablag‘lari quyidagi ehtiyojlarga sarflanadi:

1) rahbar, advokat stajyori, advokat yordamchisi, texnik xodimlarning (hisobchi, **kassir**, ish yurituvchi, farrosh, qorovul va h.k.) ish haqini to‘lash uchun;

2) advokatlik tuzilmasining faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida – asosiy vositalar, transport, tuzilma jihozlari, mebel, boshqa tovar-moddiy zaxiralari (yuridik adabiyotlar, kanselyariya tovarlari va h.k.) sotib olish uchun;

3) ijara haqini to‘lash uchun;

4) kommunal va aloqa xizmatlarini to‘lash uchun;

5) bank xizmatlari uchun.

Bundan tashqari, qonunchilikka muvofiq, advokatlar tomonidan har oyda eng kam oylik ish haqining 50% miqdorida Advokatlar palatasiga a’zolik badallari to‘lanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplarini bayon qiling.
2. Advokatning daxlsizligi deganda nimani tushunasiz?
3. Advokat qaysi holatlarda guvoh sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas?
4. Advokatga nisbatan jinoyat ishi qaysi organ tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin?

KAZUSLAR

1-kazus

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda er-xotin Rustam va Jamilalarning birgalikda yashagan davri mobaynida topilgan mol-mulkni o‘zaro bo‘lish haqida nizo ko‘rib chiqildi.

Da’vogar advokat bilan huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida bitim tuzish uchun ishni ko‘rib chiqishni vaqtinchha to‘xtatishni so‘radi.

Javobgar unda advokatni yollash uchun mablag‘ yo‘qligini ro‘kach qilib, ishni sudda ko‘rishni vaqtinchha to‘xtatishga e’tiroz bildirdi. Sudya da’vogarning iltimosini rad etdi va buni da’vogar tarafida advokat ishtirok etib, javobgar tarafida ishtirok etmasa, sudda taraflarning tengligi prinsipi buzilishi bilan asosladi.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura” to‘g‘risidagi qonunida advokatlik siri berilgan bo‘lib, advokat, advokat yordamchisi, advokat stajyori, advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalari mansabдор shaxslari va texnik xodimlarining advokatlik siri bo‘lmish ma’lumotlarni oshkor etishi va bu ma’lumotlardan o‘z

manfaatlari yoki uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanishi man etilishi belgilangan.

Mazkur normani quyidagi savollar orqali sharhlang.

- 1. Advokatlik siriga nimalar kiradi?**
- 2. Advokatlar byurolari, hay’atlari va firmalari mansabdon shaxslari va texnik xodimlariga kimlar kiradi?**
- 3. “Advokatlik siri bo‘lmish ma’lumotlardan uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida foydalanish man etiladi” jumlasiga tushuntirish bering.**

III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATLIK FAOLIYATINING TASHKILIY SHAKLLARI

O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura” to‘g‘risidagi qonuni 4-moddasida belgilangan bo‘lib, ular quyidagicha bayon qilingan:

- advokatlik byurosni;
- advokatlik firmasi;
- advokatlar hay’ati;
- yuridik maslahatxonasi.

O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, belgilangan tartibda litsenziya olgan shaxs o‘z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga;

- boshqa advokatlar (sheriklar) bilan advokatlik firmasi yoki a’zolikka asoslangan advokatlar hay’atini tuzish yoxud faoliyat ko‘rsatayotgan shunday advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishga;
- yuridik maslahatxonada ishlagan holda advokatlik faoliyatini amalga oshirishga haqli. Advokat o‘z faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasida amalga oshira oladi.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, yuridik maslahatxonalarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2009-yil 9-martdagи 60-son qarori va ushbu qaror asosida
tasdiqlangan Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan
o'tkazish (hisobga olish) to'g'risidagi nizomni o'qish
tavsiya qilinadi.**

Advokatlik tuzilmalarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, tuzilmasi, shtatlari, vazifalari, mablag'larni sarflash tartibi, rahbar organlarining vakolatlari, ularni saylash tartibi hamda advokatlik tuzilmalari faoliyatiga taalluqli boshqa masalalar ularning ustavlari (nizomlari), ta'sis shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlari ular ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi. Yuridik maslahatxona hisobga olingan kundan e'tiboran o'z faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Advokatlik firmasi yoki advokatlar hay'atining joylashgan yeri yashash uchun mo'ljallanmagan joyda bo'lishi kerak.

Advokatlik byurolarini ta'sis etgan advokatlar o'z faoliyatini mulk huquqi yoki boshqa qonuniy asosda o'zlariga tegishli bo'lgan turar joylarda amalga oshirishi mumkin. Bunda advokatga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan turar joylarni advokatlik byurosini faoliyatida foydalanish maqsadida yashash uchun mo'ljallanmagan joylar toifasiga o'tkazish talab qilinmaydi.

Advokatlik tuzilmalari fuqarolar va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatganlik uchun ulardan tushadigan pul mablag'lari (daromadlar) hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa

mablag‘lar hisobidan ta’minot oladi. Advokatlar advokatlarning jamoat birlashmalarini tuzishi mumkin.

Advokatlik firmasi va advokatlar hay’ati O‘zbekiston Respublikasi hududi hamda chet davlatlarda ushbu davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq o‘zining alohida bo‘linmalari (vakolatxonalari va filiallari)ni tashkil etishga haqli. Bunda advokatlik firmasi va advokatlar hay’ati alohida bo‘linmani ochish to‘g‘risidagi qarori haqida ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organni oldindan xabardor qiladi.

Advokatlik byurosi. Advokatlik byurosi advokatlik faoliyatini yakka tartibda amalga oshirish uchun advokat tomonidan ta’sis etilgan, notijorat tashkilot bo‘lgan advokatlik tuzilmasidir.

Advokatlik byurosining ta’sis hujjati muassis tomonidan tasdiqlanadigan ustavidir.

Advokatlik firmasi. Advokatlik firmasi sheriklikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta’sis etilgan, notijorat tashkilot bo‘lgan advokatlik tuzilmasidir.

Advokatlik firmasining ta’sis hujjati uning muassislari tomonidan tasdiqlanadigan ustavidir.

Advokatlik firmasini ta’sis etgan advokatlar oddiy yozma shaklda o‘zaro sheriklik shartnomasini tuzadi. Sheriklik shartnomasiga ko‘ra, advokatlar – barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun o‘z sa’y-harakatlarini birlashtirish majburiyatini oladi.

Sheriklik shartnomasida uning amal qilish muddati, sheriklar tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi, boshqaruvchi sherikni saylash tartibi, uning vakolatlari va boshqa muhim shartlar ko‘rsatiladi.

Advokatlik firmasining umumiy ishlarini yuritish, agar sheriklik shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, boshqaruvchi sherik tomonidan amalga oshiriladi. Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan yuridik yordam ko‘rsatish haqidagi bitim (shartnoma) boshqaruvchi sherik yoki barcha sheriklar nomidan ular bergen ishonchnomalar asosida boshqa sherik tomonidan tuziladi. Ishonchnomalarda ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslar bilan bitimlar (shartnomalar) hamda kelishuvlar tuzayotgan sherik vakolatlarining barcha cheklovleri ko‘rsatiladi. Mazkur cheklovlar ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslar e’tiboriga yetkaziladi.

Sheriklik shartnomasi quyidagi hollarda tugatiladi:

sheriklik shartnomasining amal qilish muddati tugaganda; sheriklardan biri bo‘lgan advokatning maqomi tugatilganda yoki to‘xtatib turilganda, agar sheriklik shartnomasida boshqa sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarda ushbu shartnomaning kuchda qolishi nazarda tutilmagan bo‘lsa;

sheriklardan birining talabiga ko‘ra, sheriklik shartnomasi bekor qilinganda, agar sheriklik shartnomasida boshqa sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarda ushbu shartnomaning kuchda qolishi nazarda tutilmagan bo‘lsa.

Sheriklik shartnomasi tugatilgan paytdan e’tiboran uning ishtirokchilari ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslarga nisbatan ijro etilmagan umumiy majburiyatlar bo‘yicha solidar tartibda javobgar bo‘ladi.

Sheriklardan biri sheriklik shartnomasidan chiqqanda, u o‘zi yuridik yordam ko‘rsatgan barcha ishlar bo‘yicha ish yuritishni boshqaruvchi sherikka topshirishi shart.

Sheriklik shartnomasidan chiqqan advokat sheriklik shartnomasida o‘zi ishtirok etgan davrda yuzaga kelgan umumiy

majburiyatlar bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) va uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'ladi.

Sheriklik shartnomasi tugatilganidan keyin advokatlar yangi sheriklik shartnomasini tuzishlari shart. Agar yangi sheriklik shartnomasi avvalgi sheriklik shartnomasining amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran bir oy ichida tuzilmasa, advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga o'zgartirilishi yoki tugatilishi kerak.

Sheriklik shartnomasi tugatilgan paytdan e'tiboran va advokatlik firmasi advokatlik tuzilmasining boshqa shakliga o'zgartirilguniga qadar yoxud yangi sheriklik shartnomasi tuzilguniga qadar advokatlar yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida bitimlar (shartnomalar) tuzishga haqli emas.

Advokatlar hay'ati. Advokatlar hay'ati a'zolikka asoslangan va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokatlar tomonidan ta'sis etilgan, notijorat tashkilot bo'lgan advokatlik tuzilmasidir.

Advokatlar hay'atining ta'sis hujjatlari uning muassislarini tomonidan tasdiqlanadigan ustav hamda ular tomonidan tuziladigan ta'sis shartnomasidir.

Ta'sis shartnomasida muassislar advokatlar hay'atiga o'z mol-mulkini o'tkazish shartlari, ushbu hay'at faoliyatida ishtirok etish tartibi, advokatlar hay'atiga yangi a'zolarni qabul qilish, muassislar (a'zolar)ning uning tarkibidan chiqish tartibi va shartlari, shuningdek, advokatlar hay'ati muassislarini (a'zolari)ning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Advokatlar hay'atlari tarkibidagi a'zolar soni o'ntadan kam bo'lmasligi kerak.

Advokatlar hay'atida yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitimlar (shartnomalar) advokat va ishonch bildiruvchi shaxs

(himoya ostidagi shaxs) o‘rtasida tuziladi hamda advokatlar hay’atining hujjatlarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Advokatlar hay’ati yuridik yordam ko‘rsatish uchun o‘zi turgan yerdan tashqarida joylashgan filiallar tuzishga haqli.

Yuridik maslahatxona. Yuridik maslahatxona — advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan advokatlik tuzilmasi.

Yuridik maslahatxona tegishli hududda yuridik yordamga bo‘lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun advokatlik tuzilmalarining soni yetarli bo‘lmagan hollarda Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tashkil etiladi.

Tegishli hududlardagi yuridik yordamga bo‘lgan ehtiyoj O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanadigan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

Yuridik maslahatxonaning moddiy-texnika ta’minoti tartibi va shartlari, yuridik maslahatxonalarga ishlash uchun yuborilgan advokatlar uchun xizmat xonalari va zarurat bo‘lganda, turar joylar ajratish bilan bog‘liq masalalar Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan tuman va shahar hokimligi bilan birgalikda hal qilinadi.

Yuridik maslahatxona Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomga asosan ish olib boradi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 675-son qarori bilan “Tijorat tashkilotlari tomonidan yuridik maslahat xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risida”gi nizom qabul

qilingan. Unga asosan, tijorat tashkilotlari tomonidan yuridik maslahat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini belgilab beradi.

Yuridik maslahatchilar tashkilotlari quyidagi yuridik maslahat xizmatlarini ko‘rsatishlari mumkin:

ro‘yxatdan o‘tish, qayta tashkil etish, yuridik shaxslarni tugatish, xorijiy kompaniyalar va tashkilotlar vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish, guvohnomalar va boshqa ruxsatnomalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda olishda ko‘maklashish;

biznesga yuridik ko‘maklashish (xizmat ko‘rsatish), shu jumladan, tashkilotning joriy masalalari bo‘yicha maslahat berish;

tashkiliy masalalar va korporativ boshqaruv masalalari bo‘yicha tashkilotning turli xil ichki hujjatlarini ishlab chiqish;

shartnomalar, kontraktlar, kelishuvlar, arizalar, shikoyatlar va boshqa huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish;

yuridik masalalarni muhokama qilishni o‘z ichiga olgan muzokaralarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakilligi;

qonun hujjatlari va nizom bilan taqiqlanmagan boshqa huquqiy masalalar bo‘yicha maslahat berish.

Yuridik maslahatchilar tashkilotlari:

- davlat sirini tashkil etuvchi axborot bo‘yicha huquqiy maslahatlar berish;
- fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy, jinoiy ishlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarda ko‘riladigan materiallar bo‘yicha yuridik maslahat berish va vakillik qilish;
- himoyachining vazifalari va dastlabki tergovda ishtirok etish;
- qonun hujjatlari va nizomda taqiqlangan boshqa faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega emas.

Yuridik maslahatchilar tashkiloti aksiyadorlik jamiyatidan tashqari, istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Yuridik maslahatchilar tashkiloti davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, shuningdek, xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas.

Yuridik maslahatchilar tashkilotlarini tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishining majburiy sharti shtatda kamida bitta yuridik maslahatchi bo‘lishi hisoblanadi. Agar shtatda faqat bitta yuridik maslahatchi bo‘lsa, u holda u O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi lozim.

Yuridik maslahatchilar tashkilotida yuridik maslahatchi shtati bittadan ortiq bo‘lgan taqdirda, ushbu tashkilotning yuridik maslahatchilari umumiy sonining kamida 50 foizi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lishi shart.

Yuridik maslahatchi yuridik maslahatchilar tashkilotini reyestraga kiritish vaqtida bu to‘g‘risida xabar qilingan holda xorijiy davlat qonunchiligi bo‘yicha maslahat berishi mumkin.

Advokat maqomi o‘z arizasiga ko‘ra to‘xtatib turilgan shaxs yuridik maslahatchi sifatida ishlashi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar yuridik maslahatchi sifatida ishlashi mumkin emas.

Yuridik maslahatchilar tashkilotining professional faoliyati qonun bilan himoyalananadi.

Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarida ishlaydigan shaxslar yuridik maslahatchilar tashkilotida mehnat faoliyatini amalga oshirishi va yuridik maslahat xizmatiga jalb qilinishi mumkin emas.

Davlat hokimiysi va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslari, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik

faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlangan boshqa shaxslar yuridik maslahatchilar tashkilotining ta’sischisi (ishtirokchisi) bo‘la olmaydi.

Yuridik maslahatchilar va (yoki) yuridik maslahatchilar tashkilotlari kasbiy manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish maqsadida qonun hujjaligiga muvofiq assotsiatsiyalar (ittifoq) va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘z vakolatlari doirasida reyestr yuritilishini ta’minlaydi hamda yuridik maslahatchilar tashkilotlari tomonidan mazkur faoliyatni tartibga soluvchi nizom talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Advokatura faoliyatining tashkiliy shakllarini bayon qiling.
2. Advokatlik byurosi va advokatlik firmasi o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni tavsiflang.
3. Advokatlar hay’ati va advokatlik firmasi o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni tahlil qiling.
4. Yuridik maslahatxonaning boshqa advokatlik tuzilmalaridan farqli jihatlarini bayon qiling.

KAZUSLAR

1-kazus

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasi 3-qismiga ko‘ra, litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs (bundan buyon matnda talabgor deb yuritiladi) yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi, shu jumladan, advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay’atida, yuridik maslahatxonada) kamida olti oy muddat stajirovka o‘tagan bo‘lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart.

Mazkur normani quyidagi savollar orqali sharhlang.

1. Advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxsning Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qituvchi lavozimida ishlab turgan holda advokatlik tuzilmasida stajirovka o‘tashga huquqi bormi?

2. Toshkent davlat yuridik universitetining Yuridik klinikasi boshlig‘i lavozimida ishlagan huqq magistri N.Faruddinovning ish staji yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga kiradimi? Barcha fikringizni O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko‘ra asoslantiring.

2-kazus

“PERFECT” advokatlik firmasi advokati Bahromov mast holda, transport vositasini boshqarish qoidalalarini buzishi natijasida harakat yo‘nalishidan qarama-qarshi yo‘nalishda kelayotgan avtomobil bilan to‘qnashuv sodir etdi. Sodir etilgan to‘qnashuv natijasida qarama-qarshi tarafdan harakatlanib kelayotgan avtomobil haydovchisi va 2 nafar yo‘lovchi og‘ir jarohat olib, shifoxonaga yuborildi.

Jabrlanuvchilardan 2 nafari “Tez yordam” mashinasida vafot etdi. Voqeа joyiga yetib kelgan IIB xodimlari yo‘l transport hodisasini qayd etishdi va holat yuzasidan rasmiylashtirilgan hujjatlarni surishtiruv organiga taqdim qilishdi. Ekspertiza natijalariga ko‘ra, advokat Bahromovning qonida ko‘p miqdorda giyohvand modda mavjudligi aniqlandi. Ushbu holatlar yuzasidan surishtiruv organi tomonidan JKning tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi hamda dastlabki tergov organiga yuborildi.

Advokat Bahromov jinoyat ishini qo‘zg‘atish protsessual tartibi buzilganidan norozi bo‘lib, yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qildi.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

IV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADVOKATLAR PALATASINING HUQUQIY MAQOMI

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning birlashmalari jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tuziladigan tashkilotlardan farq qiladi. Ular maqsadlari, funksiyalari, huquqiy tartibga solish subyektlari, unga a'zo bo'layoutganlarga, o'z a'zolari maqomiga talablar, ularga yuklatilgan majburiyatlarga ko'ra farqlanadi.

"Advokatlik faoliyatini tashkil qilish" tushunchasi advokatlarning o'z vazifalarini samarali amalga oshirish uchun tegishli tuzilmaga birlashishlarining huquqiy va tashkiliy shaklini anglatadi. Advokaturaning tashkiliy shakllari yordamida ham bevosita advokatlik faoliyati amalga oshadi, ham bu faoliyatning yuridik, ijtimoiy va boshqa kafolatlari, jumladan, advokatlarni noqonuniy harakatlar va davlat tomonidan advokatura faoliyatiga aralashuvidan himoyalash ta'minlanadi.

Yuqorida keltirilgan, 1990-yil avgust oyida BMTning XIII Kongressida qabul qilingan Advokatlar roli to'g'risidagi asosiy qoidalarga muvofiq, advokatlarning o'zi (davlat aralashuvisiz) tomonidan ularning o'z manfaatlarini ilgari surish, doimiy o'qish, qayta tayyorlash va kasbiy darajasini qo'llab-quvvatlash uchun o'zini o'zi boshqarish assotsiatsiyalarini tashkil etish huquqi berilishi lozim.

1990-yil sentabr oyida Nyu-York shahridagi Xalqaro yuristlar uyushmasining Konferensiyasida qabul qilingan Juridik kasb mustaqilligi xalqaro standartlariga muvofiq, har bir mintaqada bitta (yoki ko'proq) mustaqil, o'zini o'zi boshqaruvchi, qonunan e'tirof etilgan yuristlar uyushmasi tashkil etilishi lozim. Uning ijroiyligi organi boshqa organlar va shaxslar aralashuvisiz barcha a'zolar tomonidan erkin saylanishi kerak.

Advokatlarning kasbiy uyushmalari kasbiy standartlar va axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi, o'z

a'zolarini ta'qib etish, cheklovlar va tajovuzdan himoya qiladi, yuridik yordam bilan barcha unga muhtojlarni ta'minlaydi, adolatli sudlov va jamoat manfaatlari maqsadiga erishish uchun hukumat va boshqa institutlar bilan birlashib ish ko'radi.

Advokatura to'g'risidagi qonunning **12-1-moddasiga** muvofiq, Advokatlar palatasi O'zbekiston Respublikasidagi barcha advokatlarning majburiy a'zoligiga asoslangan notijorat tashkilot sanaladi. Advokatlar palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi o'zining hududiy boshqarmalari bilan advokaturaning o'zini o'zi boshqarish yagona tizimini tashkil qiladi. Advokatlar palatasi advokatlar faoliyatiga aralashmaslik tamoyili asosida faoliyat yuritadi. Bu qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 27-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 112-son qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2008-yil 1-maydag'i PF-3993-son farmonini bajarish yuzasidan hamda O'zbekiston Advokatlar assotsiatsiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi barcha advokatlarining majburiy a'zoligiga asoslangan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tashkil etilgan.

Advokatlar palatasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- advokatlik tuzilmalarining faoliyatini markazlashtirilgan holda muvofiqlashtirib borish;
- advokaturani yanada rivojlantirish, uning obro'-e'tiborini oshirish, advokaturaning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi rolini kuchaytirishga ko'maklashish;
- aholining huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy targ'ibot chora-tadbirlarini amalgaga oshirish;
- qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, huquqiy tartibga solishning yaxlitligi hamda

qonun hujjatlari normalarining bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga doir takliflar kiritish;

– advokatura faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va ular yuzasidan takliflar tayyorlash;

– advokatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, shu jumladan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan munosabatlarda, shuningdek, sudda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;

– advokatlarni ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq ta'qiblar, cheklashlar va tajovuzlardan himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish;

– advokatlarning kasbiy tayyorgarligi va malaka oshirishini tashkil etish;

– aholining yuridik yordamdan foydalana olish imkoniyatini tumanlar va shaharlarda yuridik maslahatxonalar tashkil etish orqali ta'minlash;

– advokatura faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'plash va o'rganish, advokatlarning ijobiy ish tajribasini ommalashtirish, advokatlik tuzilmalariga uslubiy yordam ko'rsatish;

– advokatlar tomonidan qonun hujjatlari, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Advokatlar palatasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

Advokatlar palatasining Konferensiysi palataning yuqori organi bo'lib, kamida besh yilda bir marta chaqiriladi.

Advokatlar palatasi Boshqaruvi Advokatlar palatasining advokatlar orasidan saylanadigan ijro etuvchi organi bo'lib, **palataning faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi.**

Advokatlar palatasining raisi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdimnomasiga binoan Advokatlar palatasining

Konferensiyasi tomonidan ushbu Konferensiya saylagan Advokatlar palatasi Boshqaruvi a'zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq Advokatlar palatasining raisi bo'lishi mumkin emas.

Advokatlar palatasining raisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qonun loyihibarini muhokama qilish bo'yicha majlislarida ishtirok etish va ular yuzasidan fikr-mulohazalar bildirishga haqlidir.

Advokatlar palatasining raisini lavozimidan muddatidan oldin chaqirib olish Advokatlar palatasining ustavida belgilangan hollarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining taqdim-nomasiga binoan Advokatlar palatasining Konferensiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Advokatlar palatasining taftish komissiyasi Advokatlar palatasining moliyaviy nazorat organi hisoblanadi va advokatlar orasidan saylanadi.

Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari yuridik shaxs bo'lib, Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalarining rahbarlari Advokatlar palatasining raisi tomonidan lavozimga (tegishli hududda faoliyat ko'rsatayotgan advokatlar orasidan) tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Zarur bilimlar va kasbiy malakalarga ega bo'lgan shaxslarga litsenziyalar berish to'g'risidagi masalani hal etish, advokat qasamyodini qabul qilish maqsadida, shuningdek, advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritishni olib borish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida malaka komissiyalari tuziladi.

Malaka komissiyalari hamkasblari orasida hurmatga sazovor bo'lgan advokatlar, shuningdek, huquq sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan toq miqdorda Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari va adliya organlarining qo'shma qarorlari bilan tuziladi.

Malaka komissiyalarining qarorlari ustidan keltirilgan apellyatsiyalarni ko'rib chiqish, malaka komissiyalarining ish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish uchun Advokatlar palatasi huzurida Oliy malaka komissiyasi tuziladi. Oliy malaka komissiyasining tarkibi hamkasblari orasida hurmatga sazovor bo'lgan advokatlar, shuningdek, huquq sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan toq miqdorda Advokatlar palatasi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Malaka komissiyalarining vakolatlari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Advokatlar Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari majburiyatları bo'yicha javob bermaydi, advokatlarning majburiyatları bo'yicha esa Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari javob bermaydi.

Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari barcha advokatlik tuzilmalari va advokatlar uchun majburiydir.

Advokatlar palatasi faoliyatini moliyalashtirish Advokatlar palatasi Konferensiyasi tomonidan miqdori belgilanadigan kirish va a'zolik badallari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Advokatlar palatasining asosiy vazifalarini tavsiflang.
2. Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari vazifa va funksiyalarini tushuntiring.
4. Advokatlar palatasining taftish komissiyasi Advokatlar palatasining qanday organi hisoblanadi va uning vazifalari nimalardan iborat?

KAZUSLAR

1-kazus

2017-yil 15-noyabrda tuzilgan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga asosan, advokat M. Otabekov fuqaro D. Rashidovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi, 206-moddalari va boshqa moddalar bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishida uning himoyachisi bo'lish majburiyatini o'z zimmasiga oldi.

D. Rashidov advokatning ish bo'yicha haqi (gonorar)ni bo'lib, ya'ni birinchi yarmini sudga qadar, ikkinchi yarmini sudning hukmi chiqarilganidan so'ng, basharti advokat ish bo'yicha imkon qadar eng ijobiy natijaga erisha olgan taqdirda to'lashga kelishib oldi. Gonorarning birinchi qismi advokat M. Otabekovga himoya qilishga rozi bo'lganidan so'ng darhol berildi.

Biroq advokat M. Otabekovning nomzodi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatligiga qo'yilgani sababli ish bo'yicha M. Otabekov yetarlicha himoya funksiyasini amalga oshira olmadi. 2017-yil 21-dekabr kuni bo'lib o'tgan saylovlar natijasiga ko'ra, advokat M. Otabekov Qonunchilik palatasiga deputat bo'lib saylandi. Natijada ish bo'yicha himoya oxiriga yetkazilmay, advokat himoyasi ostidagi shaxsning himoyasidan voz kechdi.

Ushbu holat bo'yicha fuqaro D. Rashidov O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga shikoyat bilan murojaat qildi.

Mazkur holatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

2014-yil 10-noyabrda tuzilgan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga asosan, advokat Valiyev fuqaro Sobitovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning mansabdorlikka oid jinoyatlar bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishida uning himoyachisi bo'lish majburiyatini o'z zimmasiga oldi. Sobitov

advokatning ish bo'yicha haqi (gonorar)ni bo'lib, ya'ni birinchi yarmini sudga qadar, ikkinchi yarmini sudning hukmi chiqarilganidan so'ng, basharti advokat ish bo'yicha imkon qadar eng ijobiy natijaga erisha olgan taqdirda to'lashga kelishib oldi. Gonorarning birinchi qismi advokat Valiyevga himoya qilishga rozi bo'lganidan so'ng darhol berildi.

Biroq advokat Valiyevning nomzodi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatligiga qo'yilgani sababli ish bo'yicha Valiyev yetarlicha himoya funksiyasini amalga oshira olmadи.

2014-yil 21-dekabr kuni bo'lib o'tgan saylovlар natijasiga ko'ra, advokat Valiyev Qonunchilik palatasiga deputat bo'lib saylandi. Natijada ish bo'yicha himoya oxiriga yetkazilmay, advokat himoyasi ostidagi shaxsning himoyasidan voz kechdi.

Ushbu holat bo'yicha fuqaro Sobitov advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga shikoyat bilan murojaat qildi.

Mazkur holatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

3-kazus

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Chirchiq tumani sudiga ikkinchi muddatga sudyalik lavozimiga saylangan Hasanov, faoliyatining uchinchi yili sog'ligi yomonlashgani va oilaviy sharoiti tufayli, o'z ixtiyoriga ko'ra, sudyalik lavozimidan ozod etildi. Tibbiy muolajalar natijasida Hasanovning sog'ligi tiklanib, u o'zining yuridik sohadagi faoliyatini advokat sifatida davom ettirishga qaror qildi. Shunga ko'ra, Hasanov tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, Toshkent viloyati advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga taqdim etdi.

Biroq imtihon natijalariga ko'ra, Hasanov malaka imtihonini topshira olmaganligi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Qabul qilingan qarordan norozi bo'lган nomzod Hasanov O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy

malaka komissiyasiga shikoyat bilan murojaat qilib, o‘zining mehnat faoliyati davomida bir necha marta manfaatlari to‘qnashgan advokat Kamilov Advokatlar palatasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining raisi ekanligi, Kamilovning unga nisbatan ichki g‘arazi borligi, ushbu adovat uning malaka imtihoni natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkinligi, imtihon natijalarini bekor qilib, uning advokatlik maqomini olishda amaliy yordam berishni so‘ragan.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

**V BOB. ADVOKAT MAQOMINI OLİSH VA UNI
TO‘XTATIB TURISH.
LITSENZIYANING AMAL QILISHINI TO‘XTATIB
TURISH VA TUGATISH**

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunida advokat bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar bayon qilingan bo‘lib, unga ko‘ra:

- oliv yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan;
- advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan;
- O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 11-oktabrdagi O‘RQ-497-sonli qonuni qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, advokat

endilikda quyidagilardan tashqari haq to‘lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas:

- 1) ilmiy va pedagogik faoliyat;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi (bundan buyon matnda Advokatlar palatasi deb yuritiladi) va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat;
- 3) patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat;
- 4) shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat;
- 5) hakamlik sndlari va xalqaro tijorat arbitrajlari (sndlari)da sudyu sifatidagi faoliyat.

O‘zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo‘lish uchun litsenziya Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi.

Zarur bilimlar va kasbiy malakalarga ega bo‘lgan shaxslarga litsenziyalar berish to‘g‘risidagi masalani hal etish, advokat qasamyodini qabul qilish maqsadida, shuningdek, advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritishni olib borish uchun Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzurida malaka komissiyalarini tuziladi.

Malaka komissiyalarini hamkasblari orasida hurmatga sazovor bo‘lgan advokatlar, shuningdek, huquq sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan toq miqdorda Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari va adliya organlarining qo‘shma qarorlari bilan tuziladi.

Malaka komissiyalarining qarorlari ustidan keltirilgan apel lyatsiyalarni ko‘rib chiqish, malaka komissiyalarining ish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish uchun Advokatlar palatasi huzurida Oliy malaka komissiyasi tuziladi. Oliy malaka komissiyasining tarkibi hamkasblari orasida hurmatga sazovor bo‘lgan advokatlar, shuningdek, huquq sohasidagi

tajribali mutaxassislar orasidan toq miqdorda Advokatlar palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Malaka komissiyalarining vakolatlari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 13-moddasi

Litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi, shu jumladan, advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay’atida, yuridik maslahatxonada) kamida uch oy muddat stajirovka o’tagan bo‘lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart.

Davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalarini va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, suda, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga ega bo‘lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o‘tmasdan malaka imtihonida ishtiroy etishga haqli.

Malaka imtihonini topshira olmagan talabgor uni takroran topshirishga kamida olti oydan keyin qo‘yiladi.

Malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor litsenziya olish uchun tegishli adliya organiga uch oy ichida murojaat qilishi kerak. Bu muddatni o‘tkazib yuborgan talabgor litsenziya olish uchun adliya organiga malaka imtihonini takroran topshirganidan keyingina murojaat qilishi mumkin.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha to'liq ma'lumot olish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 60-son qarori va ushbu qaror asosida tasdiqlangan Advokatlik faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomni o'qish tavsija qilinadi.


Belgilangan tartibda litsenziya olgan talabgor uch oy ichida advokat qasamyodini qabul qilishi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birgalikda advokatlik tuzilmasini tuzishi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirishi shart.

Talabgorga advokatlik guvohnomasi advokatlik tuzilmasi ro'y-xatdan o'tkazilgan yoki talabgorning faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmasiga kirganligini tasdiqlovchi hujjatlar adliya organi tomonidan olingan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida beriladi.

Talabgor advokatlik guvohnomasi berilgan kundan e'tiboran advokat maqomini oladi. Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasi adliya organi tomonidan bu haqda uch kunlik muddatda xabardor qilinadi. Shunday xabarnoma olingan paytdan e'tiboran advokat Advokatlar palatasining a'zosi bo'ladi.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalash

SXEMASI



Advokat maqomini to'xtatib turish. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, advokat maqomini to'xtatib turish malaka komissiyalarining qarori bilan amalgaloshiriladi, xususan:

- advokat advokatlik faoliyati bilan birga olib borib bo'lmaydigan doimiy lavozimga saylanganda yoki tayinlanganda – *ish davriga;*
- ta'lim muassasalariga, shu jumladan, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslariga o'qishga kirganda – *o'qish davriga, biroq ko'pi bilan uch yilga;*

- homiladorlik va tug‘ish, uch yoshgacha bo‘lgan bolani parvarish qilish bo‘yicha ta’tillar berilganda – *ta’til vaqtiga*;
- advokat yoki uning yaqin qarindoshi og‘ir kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tufayli tibbiy xulosa taqdim etilganda – *sog‘ayguncha, biroq ko‘pi bilan bir yilga*;
- advokat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan deb topilganda – *bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinguniga qadar bo‘lgan davrga*;
- advokat harbiy xizmatga chaqirilganda – *harbiy xizmatni o‘tash davriga*;
- sud tomonidan advokatga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilinganda, agar sudning mazkur qarori “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 16-moddasiga muvofiq litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo‘lmasa – *tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini sud tomonidan bekor qilinguniga qadar yoki o‘zgartirilguniga qadar bo‘lgan davrga*;
- “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 15-moddasiga muvofiq litsenziyaning amal qilishi to‘xtatib turilganda – *litsenziyaning amal qilishi to‘xtatib turilgan davrga*;

advokatlik tuzilmasi tugatilganda yoki advokat undan chiqqanida – *advokat tomonidan uch oydan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladigan boshqa advokatlik tuzilmasi tashkil etilguniga qadar yoxud mavjud advokatlik tuzilmalaridan biriga kirguniga qadar bo‘lgan davrga*.

Advokatda advokatlik faoliyati bilan bir oydan ortiq muddatga shug‘ullanishdan ozod qilinishiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo‘lganda, advokatning maqomi uning arizasiga binoan bunday ozod qilinish muddatiga to‘xtatib turilishi mumkin.

Advokatlik maqomini to‘xtatib turish haqidagi qaror qabul qilingan kundan e’tiboran advokat maqomi to‘xtatiladi.

Adliya organi uch kunlik muddat ichida advokatning guvohnomasini olib qo'yadi. Advokat bedarak yo'qolgan deb topilgan hol bundan mustasno va Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasiga advokat maqomi to'xtatilganligi haqida xabar beradi. Advokat maqomining to'xtatib turilishi advokatning Advokatlar palatasiga a'zoligi to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Advokat maqomining to'xtatib turilishi mazkur advokatga nisbatan qonunda nazarda tutilgan kafolatlarning amal qilishi to'xtatilishiga olib keladi. "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi 3- va 5-qismlari hamda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasi 4- va 5-qismlarida nazarda tutilgan kafolatlар bundan mustasno.

Advokat maqomi to'xtatib turilgan shaxs advokat maqomini to'xtatib turish uchun asos bo'lgan hollar tugatilganidan keyin uch oy ichida advokatlik faoliyatiga kirishishi kerak. Mazkur talabni bajarmaslik litsenziyaning amal qilishi belgilangan tartibda tugatilishiga sabab bo'ladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish advokat jinoiy javobgarlikka tortilgan taqdirda u ayblanuvchi tariqasida jalb etilgan paytdan boshlab va sud hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar advokatga guvohnoma bergen adliya organining qarori bilan amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish advokatga guvohnoma bergen adliya organi yoki Advokatlar palatasining murojaatiga ko'ra ma'muriy sudning qarori bilan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi yoki adliya organining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan, shu jumladan, advokatning zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklaydigan qarorlari advokat tomonidan bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda;

- advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi aniqlanganda;

- litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish muddati olti oydan oshishi mumkin emas. Advokat jinoyat ishida ishtirok etishga ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan hol bundan mustasno. Litsenziyasining amal qilishi to‘xtatib turilgan shaxs litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishga olib kelgan holatlarni, agar ular bartaraf etib bo‘lmaydigan xususiyatga ega bo‘lmasa, ko‘rsatilgan muddatda bartaraf etishi shart.

Buni yodda tuting!

Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish advokat maqomining to‘xtatib turilishiga sabab bo‘ladi.

Adliya organining litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, litsenziyaning amal qilishini tugatish advokatga guvohnoma bergen adliya organining qarori bilan amalga oshirilishi belgilangan. Xususan:

1.	advokat litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etganda, agar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) buni talab qilsa, ilgari qabul qilingan topshiriqni bajarib bo‘lganidan so‘ng;
2.	agar litsenziya berish uchun qaror qabul qilinganligi to‘g‘risida bildirishnomha yuborilgan (topshirilgan) paytdan e’tiboran uch oy ichida talabgor litsenziya bergenlik uchun davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni adliya organiga taqdim etmagan bo‘lsa;

3.	O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 3 ¹ -moddasi yettinchi qismi va 13 ¹ -moddasining oltinchi qismida nazarda tutilgan talablar bajarilmaganda;
4.	advokatning muomala layoqati cheklangan yoki u belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
5.	sudning advokatni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish haqidagi ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;
6.	advokat O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo‘qtganda;
7.	advokat vafot etganda yoki sudning uni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirganda.

**Litsenziyaning amal qilishini tugatish ma’muriy sud
tomonidan Oliy malaka komissiyasining xulosasi asosida
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining murojaatiga
ko‘ra
quyidagi hollarda amalga oshiriladi:**

1.	advokat kasbiga doir vazifalarini olti oy mobaynida uzsiz sabablarga ko‘ra bajarmaganda;
2.	litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda;
3.	litsenziya berish to‘g‘risidagi qarorning g‘ayriqonuniy ekanligi aniqlanganda;
4.	litsenziyasining amal qilishi to‘xtatib turilgan shaxs litsenziyaning amal qilishi to‘xtatib turilishiga olib kelgan holatlarni sud tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmaganda;
5.	advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol ravishda buzilganda, advokatning sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan hamda

	advokaturaning obro'sini tushiradigan qilmish sodir etilganda.
--	----------------------------------------------------------------

Litsenziyaning amal qilishini tugatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham ma'muriy sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran amalga oshiriladi.

Adliya organining litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish advokat maqomining tugatilishiga sabab bo‘ladi.

Adliya organi uch kunlik muddatda Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasini advokatning maqomi tugatilganligi haqida xabardor qiladi, shuningdek, tegishli xabarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi. Advokat maqomining tugatilishi advokatning Advokatlar palatasiga a’zoligi tugatilishiga sabab bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 16-moddasining ikkinchi qismi beshinchi va oltinchi xatboshilarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, litsenziyasining amal qilishi tugatilgan shaxs uch yil mobaynida talabgor bo‘lishga haqli emas.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya olish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlarni bayon qiling.
2. Advokatga litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibini izohlang.
3. Litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish asoslarini bayon qiling.

4. Advokatlik litsenziyasining amal qilishini tugatish vakolati kimgarga berilgan va ushbu litsenziyaning amal qilishini tugatishga nimalar asos bo‘ladi?

KAZUSLAR

1-kazus

2018-yil 13-iyun kuni Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudi sudyasi R. Olimovning birinchi martalik muddati tugadi. Shu sababli fuqaro R. Olimov keyingi faoliyatini advokat sifatida davom ettirish uchun 2018-yil 28-iyun kuni zarur hujjatlarni yig‘ib, litsenziya olish uchun Toshkent shahar adliya boshqarmasiga topshirgan.

Toshkent shahar adliya boshqarmasi tomonidan fuqaro R. Olimovga stajirovga o‘tamaganligi sababli litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs bo‘la olmasligi to‘g‘risida javob xati yuborilgan.

Mazkur xatdan norozi bo‘lgan fuqaro R. Olimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning virtual qabulxonasiga murojaat qilgan.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasi 3-qismiga ko‘ra, litsenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs (bundan buyon matnda talabgor deb yuritiladi) **yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lishi**, shu jumladan, **advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosida, advokatlik firmasida, advokatlar hay’atida, yuridik maslahatxonada)** kamida olti oy muddat stajirovka o‘tagan bo‘lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shart.

Mazkur normani quyidagi savollar orqali sharhlang.

1. Toshkent pedagogika kollejida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi” fanidan dars bergan o‘qituvchining ish staji yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga kiradimi?
2. Advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgor shaxs Toshkent davlat yuridik universitetida o‘qituvchi lavozimida ishlab turgan holda advokatlik tuzilmasida stajirovka o‘tashga huquqi bormi?
3. Toshkent davlat yuridik universitetining Yuridik klinikasi boshlig‘i lavozimida ishlagan huquq magistri N. Faruddinovning ish staji yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga kiradimi? Barcha fikringizni O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko‘ra asoslantiring.

3-kazus

Jinoyat ishlari bo‘yicha Toshkent viloyati Chirchiq tumani sudiga ikkinchi muddatga sudyalik lavozimiga saylangan Hasanov, faoliyatining uchinchi yili sog‘ligi yomonlashgani va oilaviy sharoiti tufayli, o‘z ixtiyoriga ko‘ra sudyalik lavozimidan ozod etildi. Tibbiy muolajalar natijasida Hasanovning sog‘ligi tiklanib, u o‘zining yuridik sohadagi faoliyatini advokat sifatida davom ettirishga qaror qildi. Shunga ko‘ra, Hasanov tegishli hujjalarni rasmiylashtirib, Toshkent viloyati advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga taqdim etdi.

Biroq imtihon natijalariga ko‘ra, Hasanov malaka imtihonini topshira olmaganligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Qabul qilingan qarordan norozi bo‘lgan nomzod Hasanov O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasiga shikoyat bilan murojaat qilib, o‘zining mehnat faoliyati davomida bir necha marta manfaatlari to‘qnashgan advokat Kamilov Advokatlar palatasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining raisi ekanligi, Kamilovning unga nisbatan ichki g‘arazi borligi, ushbu adovat uning malaka imtihoni natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan

bo‘lishi mumkinligi, imtihon natijalarini bekor qilib, uning advokatlik maqomini olishda amaliy yordam berishni so‘ragan.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

VI BOB. ADVOKATNING KASB ETIKASI VA UNING JAVOBGARLIK MASALALARI

Mustaqil tashkilot a’zosi sifatida advokat advokatlik korpusi sha’ni va qadrini har tomonlama mustahkamlashi, advokatlik etikasiga faqat advokatlik majburiyatini bajarish chog‘ida emas, balki kundalik hayotda, jamiyat hayotida ham rioya etishi, ishonch bildiruvchi va butun jamiyat oldidagi o‘z axloqiy majburiyatlarini anglashi lozim. Advokatning faoliyati, avvalo, fuqarolar va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatishdan iboratdir.

Yevropa hamjamiyati mamlakatlarda “Yevropa hamjamiyati mamlakatlari avdokatlari uchun umumiy qoidalar kodeksi” mavjud. 1990-yil sentabrda Nyu-Yorkda o‘tkazilgan konferensiyada Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan “Xalqaro yuristlar assotsiatsiyasi yuridik kasb mustaqilligi standartlari” huquqiy hujjati qabul qilindi.

Mashhur advokat M.Yu. Barshevskiy advokatlik kasbining uchta asosiy tamoyilini ajratib ko‘rsatadi: halollik, layoqatlichkeit va vijdoniylilik. Ular advokatlik faoliyatining turli jihatlarida namoyon bo‘ladi: ishonch bildiruvchi shaxslarga konsultatsiya berishda, sudda, boshqa ommaviy chiqishlarda, hamkasblar, sud ma’muriyat bilan munosabatlarda, manfaatlar ziddiyati vaziyatlarida.

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konfrensiyasining 2013-yil 27-sentabrdagi qarori bilan “Advokatning kasb etikasi qoidalari” tasdiqlangan.

2018-yil 17-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining III Konfrensiyasi bo‘lib o‘tdi va unda “Advokatning kasb etikasi qoidalari”ga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.

Advokatning kasb etikasi qoidalari (bundan buyon matnda Qoidalari deb yuritiladi) advokatlarga nisbatan amal qiladi. Advokatlik tuzilmalari rahbarlari va advokatlar tuzilmalari xodimlari Qoidalari hamda advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlashi lozim. Advokat qonun hujjatlari va ushbu Qoidalarga qat’iy rioya etishi shart. Qoidalari va qonun hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan masalalar bo‘yicha jamiyatda shakllangan umumaxloq normalari qo‘llaniladi.

Advokat o‘z kasbiy nufuzini oshirish va uni saqlash maqsadida axloq doirasida harakatlar qilishi hamda qadr-qimmatini kamsitadigan harakatlar qilmasligi lozim. Advokatning kasbiy qadr-qimmatini kamsitadigan xulq-atvori – bu uning obro‘sini to‘kadigan va advokaturaga nisbatan jamiyat ishonchi yo‘qolishiga olib keladigan harakat hisoblanadi.

Advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmati. Advokat o‘z kasbiga xos sha’n va qadr-qimmatni saqlash choralarini ko‘rishi lozim. Ushbu Qoidalarga rioya etish zarurati advokatlik maqomi berilganligi faktidan kelib chiqadi.

O‘Z SHA’NI VA QADR-QIMMATINI SAQLASHI UCHUN ADVOKAT:	
1.	xushmuomala, odobli, jonkuyar, halol, vijdonli, prinsipial bo‘lishi, yuridik yordam so‘rab murojaat etgan va ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar)ning, hamkasblari va boshqa shaxslarning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, kasb muomalasi odatlariga rioya qilishi hamda kasbiga mos kiyinishi;
2.	o‘z vaqtida va malakali faoliyat ko‘rsatishi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun hujjatlari va ushbu qoidalarga rioya qilgan holda, himoyaning qonunda nazarda tutilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi, o‘z huquqiy nuqtai nazarini faol himoya qilishi, ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar)ning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini faol himoya qilishi;

3.	advokatlik sirini saqlashi;
4.	advokaturaning nufuzi va advokatning shaxsiy qadr-qimmatiga putur yetkazadigan harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi, advokaturaning jamiyatdagi rolini oshirishga ko‘maklashishi;
5.	doimiy ravishda huquq sohasidagi bilimlarini kengaytirishi va kasbiy malakasini oshirishi zarur.

Advokat o‘z kasbiy faoliyatini advokatlik tuzilmasining rahbari sifatidagi ish bilan qo‘sib olib borishga haqli. O‘z kasbiy vazifalarini bajarish bo‘yicha zimmasiga olgan topshiriqlar advokat uchun boshqa faoliyatga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Advokatga ishonch sirning saqlanishiga ishonch bilan baholanadi. Advokatlik siri ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning daxlsizligini bildiradi.

Advokatlik siri advokat faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega. Sirni saqlash muddati vaqt bilan chegaralanmaydi. Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)dan boshqa hech kim advokatni advokatlik sirini saqlash majburiyatidan ozod qilishi mumkin emas.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan taqdim qilingan axborotni quyidagi holarda oshkor qilishi mumkin:

- ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning bunga roziligi, agar bunday axborotni oshkor qilish ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning manfaati yo‘lida advokatning kasbiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lsa;
- ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaati yuzasidan boshqa advokatlar bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganda, agar u bunday maslahatlashuvlarga e’tiroz bildirmagan bo‘lsa;
- advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o‘rtasidagi fuqaroviylar nizoni hal qilishda o‘z pozitsiyasini asoslash yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi

shaxs) ishtirok etgan harakatlarga asoslanib, advokatga nisbatan qo‘zg‘atilgan intizomiy yoki jinoyat ishi bo‘yicha shaxsiy himoyasini ta’minlash uchun.

Advokatlik sirini saqlash maqsadida advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga tegishli bo‘lgan material va hujjatlarni alohida ish yurituvda (dose) olib borishi kerak. Advokatlik sirini saqlash qoidalari advokat yordamchilari va stajyorlari, shuningdek, advokatlik tuzilmalarining boshqa xodimlariga nisbatan ham amal qiladi.

Hujjatlar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan taqdim etilgan bo‘lsa va hujjatlarning soxtaligi haqida ma’lumot mavjud bo‘lmasa, advokat ularning ishonchliligi uchun javob bermaydi.

Advokatlarning o‘zaro munosabatlari. Advokatura o‘z missiyasini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun u yaxlit bo‘lmog‘i lozim. Ajoyib advokat D.P. Vatmanning quyidagi so‘zlarini advokatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning umumiyligi mohiyatini yaqqol oolib beradi: “Hamkasbiga, uning shaxsiyatiga, mehnat va ijtimoiy obro‘siga hurmat advokatura nomi va sha’nining qadri haqida qayg‘urishni o‘zining axloqiy majburiyati deb hisoblovchi har bir advokat uchun bosh qoida bo‘lishi kerak. Bu – advokatlik etikasining alifbosidir. Zero, o‘zaro munosabatlarda hurmat, xushmuomalalik va qat’iy bo‘badablik ko‘rsatmaydigan, suddagi kurash jarayonida do‘stona birdamlik tuyg‘ularini unutib qo‘yadigan tashkilot boshqalardan hurmat kuta olmaydi”.

Qoida ko‘rinishida bu axloqiy talab quyidagi ko‘rinishda ifodalaniishi mumkin: advokatning boshqa avdokatlarga nisbatan xatti-harakati hurmat va ochiq ko‘ngillilikka asoslanishi lozim.

Ba’zida advokatga oldin boshqa advokatga murojaat qilgan ishonch bildiruvchi shaxs murojaat qilib qoladi. Axloqiy tasavvurlarga ko‘ra, bunday ishonch bildiruvchi shaxsdan topshiriq olayotgan advokat o‘z hamkasbi bilan bog‘lanishi lozim. **Ham-**

kasbini ehtimoliy murakkabliklar, bu yo ishonch bildiruvchi shaxsnинг individual xususiyatlari yoki ishning ko‘zga darhol tashlanmaydigan huquqiy jihatlari bo‘lsin, bu advokatning ma’naviy, axloqiy majburiyatidir.

Hech qanday holatda, hatto ishonch bildiruvchi shaxs talab qilsa ham, topshiriqni boshqa advokatga bergan advokat bu topshiriqni olgan advokatdan birinchisiga ishni davom ettirishga to‘sinqilik qilgan obyektiv holatlar mavjudligini yashirishga haqi yo‘q.

Advokatlik etikasi hech qanday holatlarda kim bilan muomalada bo‘lmasisin, o‘z hamkasbining mehnat va shaxsiy sifatlariga nisbatan hurmatsizlik, haqoratlash bo‘luvchi fikrlar bildirmaslik kerakligini talab qildi. Har qanday boshqa advokatning noxolis tanqidi yoki zarurati bo‘lмаган, shuningdek, o‘zini reklama qilish maqsadidagi tanqid maqbul emasligi ochiq-oydindir. Shu bilan birga, agar bir advokat ishonch bildiruvchi shaxsga o‘z harakatlari bilan zarar yetkazsa, korporativ birdamlik boshqa advokatga aybdordan yuzaga kelgan zararlarni sud orqali undirib olish to‘g‘risidagi ishni o‘ziga olishga to‘sinqilik qilmasligi lozim.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxslar o‘rtasida mavjud yoki endi yuzaga kelgan har qanday xushko‘rmaslik tuyg‘ulari, ayniqsa, sud jarayoni vaqtida, advokatning ham boshqa advokatlar, ham ishonch bildiruvchi shaxslarga nisbatan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatmasligi kerakligini doim esda tutishi kerak. Muayyan ish bilan shug‘ullanayotgan advokatlar o‘rtasidagi shaxsiy g‘araz ishning to‘g‘ri ko‘rilishiga to‘sinqilik qilishi, sud qarori esa hissiyotlar ta’siri ostida qabul qilinishi mumkin.

Advokat ikkinchi tomon advokatining barcha xatolari, adashishlari, qonun buzilishlaridan, alalxusus, agar ular ish mazmuniga ta’sir ko‘rsatmasa va ishonch bildiruvchi shaxs huquqlarini poymol qilmasa, ajratib o‘tirmay foydalanishga urinishdan o‘zini asrashi kerak. Sud jarayoni davomida advokatlar o‘rtasidagi shaxsiy xarakterdagi luqmalar, o‘z hamkasbiga nisbatan uning professional emasligi, kasbiy tajribasi kamligi, o‘zining kasbiy xizmatlari yuksak ekanligini aytib, tanqidiy hujum

uyushtirish yo'l qo'yilmaydigan harakatlarga kiradi. Aksariyat boshqa vaziyatlarda bo'lgani kabi, bu qoidalarga rioya etilishi ham advokatning o'zi uchun, ham umuman butun advokatura uchun katta ahamiyatga ega. Agar a'zolari bir-birini hurmat qilmaydigan bo'lsa, tashkilotni birov hurmat qilishidan umidvor bo'lmaslik kerak.

Advokat boshqa advokat yuritayotgan ish bo'yicha boshqa tomon bilan suhbatlashmasligi yoki nizoli masalani muhokama qilishga urinmasligi lozim. Bunga o'sha advokat orgali yoki uning roziliги bilangina ruxsat beriladi. Shuningdek, o'z hamkasbi bilan kelishib olmagan holda audio yoki videoyozuvni qo'llashga ham yo'l qo'yilmaydi. Ba'zi holatlarda advokatning bunday yozuv amalga oshirilishini talab qilishga haqliligi boshqa masala, lekin uni maxfiy amalga oshirib bo'lmaydi.

Advokatning hamkasblari va sud oldida protsessual qonun qoidalari teqishlicha qo'llamaganligi uchun shaxsiy javobgarligi ham katta amaliy ahamiyatga ega. Bu ham hamkasbining protsessual vaqtি tejalishi, ham unga, sudga va nizoda qatna-shayotgan tomonlarga nisbatan hurmatdir.

Advokatlik etikasi qoidasi sifatida advokat tomonidan o'z hamkasbiga uning kasbiy faoliyatida maksimal yordam ko'rsatish, huquqiy pozitsiyani tanlash, murakkab huquqiy nizo va kolliziyanı hal etishda maslahat berishni ham e'tirof etish mumkin. Bunda advokat xushmuomalalik tuyg'usini unutmasligi kerak.

Ushbu masalalarni faqat o'z hamkasbi bilan muhokama qilish qoidalari doirasidan tashqariga chiqmaydi, lekin bu masalalarni ishonch bildiruvchi shaxs bilan muhokama qilish, o'z fikrini bildirishi uchun jalb etilgan masalalardan tashqari, odobsizlik sanaladi va, binobarin, advokatlik etikasi qoidalariga zid keladi.

№	ADVOKAT:
1.	huquqiy hujjatlarda, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) va boshqa shaxslarga yozgan xatlarida boshqa advokatning, advokatura instituti, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudyalar va boshqa davlat organlari xodimlarining sha'niga dog' tushiradigan yoki ularga nisbatan haqoratli iboralarga yo'l qo'yishga;
2.	yuridik yordam so'rab murojaat qilgan shaxslar, ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) bilan suhbatlarda boshqa advokatning sha'niga dog' tushiradigan iboralarni qo'llash, shuningdek, ushbu shaxslarga ilgari yuridik yordam ko'rsatgan advokatlarning harakatlari va maslahatlarining to'g'riligini tanqid qilishga;
3.	yuridik yordam so'rab murojaat qilgan shaxslar va ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) bilan boshqa advokatlar tomonidan undirilayotgan haq miqdorini muhokama qilishga haqli emas.

Advokat uzrli sabablarga ko'ra sud majlisi yoki tergov harakatlarida ishtirok etish uchun belgilangan vaqtda yetib kelishining imkon bo'limganda, shuningdek, boshqa vaqt tayinlash to'g'risida iltimosnomasi kiritish niyatida bo'lsa, bu haqda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga imkon qadar oldindan ma'lum qilishi, jarayonda ishtirok etayotgan boshqa advokatlarni ham xabardor qilishi va ular bilan o'zaro maqbul vaqtini kelishib olishi kerak.

Agar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) ishni, topshiriqni zimmasiga olib bo'lgan boshqa advokat bilan birgalikda yuritishni iltimos qilsa, advokat o'z hamkasbi ishni birgalikda yuritishga rozi yoki rozi emasligini aniqlashi lozim.

Advokatlar tomonidan ishni birga yuritish yuzasidan kelishuvga erishilmasa, ular bu haqda ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ni xabardor qilib, unga advokat tanlashda bir qaror qabul qilishni taklif etishlari kerak.

Agar advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning boshqa advokatga qarshi qo‘zg‘atgan ishini yuritish topshirig‘ini olsa, u bu haqda advokatlik tuzilmasining rahbari va hamkasbiga ma’lum qilishi hamda ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning manfaatlariga rioya etgan holda nizoni kelishuv bitimi tuzish yo‘li bilan tugatishni taklif qilishi kerak. Agar kelishuv bitimi tuzishning imkonи bo‘lmasa, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning manfaatlarini ifoda etuvchi advokat hamkasbi bilan suhbatni davom ettirmasdan, topshiriqni bajarishi lozim.

Advokatlar o‘rtasidagi munosabatlar ishda ishtirok etuvchi taraflar manfaatlarini himoya qilishga ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Advokat boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab, ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning manfaatlariga zid harakat qilishi mumkin emas.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning protsessual raqibi bilan faqat uning vakili (himoyachisi) sifatida ishtirok etayotgan advokatning roziligi bilan yoki uning ishtirokida suhbatlashishga haqlı.

Zarurat bo‘lganda, advokat o‘z hamkasbi tomonidan kasb etikasi normalari buzilishiga yo‘l qo‘yanligiga e’tibor qaratishi haqida ogohlantirishi lozim. Ular qo‘pol ravishda buzilganida yoki bildirilgan ogohlantirish inobatga olinmagan taqdirda, Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalariga shikoyat qilish mumkin.

Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalaridagi lavozimlarga saylangan yoki tayinlangan advokatlar boshqa advokatlarning huquqlarini cheklaydigan, ularning kasbiy faoliyatini amalgalashirishi uchun to‘sqinlik qiladigan, kamsituvchi yoki imtiyozli shart-sharoitlar belgilamasliklari lozim.

Advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan munosabatlari. Qonun va axloq normalari advokatlik kasbida ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning xohish-irodasidan ustundir. Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya

ostidagi shaxs)ning qonunga rioya etmaslikka yoki Qoidalarda nazarda tutilgan normalarni buzishga qaratilgan har qanday istagi, iltimosi yoki ko'rsatmasi advokat tomonidan bajarilishi mumkin emas.

Advokat o'ziga yuridik yordam so'rab murojaat qilgan shaxsga taalluqli masalaning mohiyatini aniqlashi, qonunni to'liq tushuntirishi, o'rganilayotgan masalaga qonun hujjatlari talablariga muvofiq baho berishi va imkon qadar masalani hal etish uchun tanlanadigan muayyan variantning oqibatlari to'g'risida ma'lum qilishi kerak. Masalani hal etish variantini uzil-kesil tanlash huquqi doimo ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga tegishlidir.

Advokat o'ziga yuridik yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qilgan shaxs yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) ga topshiriqni bajarish bo'yicha erishiladigan natija bo'yicha asossiz umidlar paydo qilishi yoki boshqa usullar orqali ishga ta'sir ko'rsatish mumkinligi yuzasidan tasavvur hosil qiladigan va'da va kafolatlar berishga haqli emas.

Agar advokat tomonidan qabul qilinadigan yangi topshiriq ijrosi oldingi topshiriq ijrosiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, advokat ushbu topshiriqni o'z zimmasiga olmasligi kerak.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)dan qarz munosabatlari bo'yicha shaxsan tobe bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslar) bilan kasbiy vazifalaridan tashqari boshqa yaqin munosabatlarga kirishishi mumkin emas.

Topshiriq bekor qilinganda, advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)dan olgan ishga doir barcha hujjatlarning asl nusxalari va ishonchnomani darhol unga qaytarishi kerak.

Topshiriqni bajarish jarayonida advokat o'z harakatlarda ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) taqdim etgan

hujjatlar va axborotning ishonchliligi prezumpsiyasidan kelib chiqqan holda ularni qo'shimcha ravishda tekshiruvdan o'tkazmaydi.

Advokatning surishtiruv, dastlabki tergov organlari, prokuror yoki sudning tayinloviga ko'ra ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish bitimi (shartnoma) asosidagi yuridik yordam ko'rsatilganidagi vazifalardan farq qilmaydi.

Agar topshiriqni qabul qilganidan keyin advokat topshiriqni zimmasiga olishga haqli bo'lмаган holatlar aniqlansa, advokat bitim (shartnoma)ni bekor qilishi lozim.

Advokat surishtiruv, dastlabki tergov organlari, prokuror yoki sud tomonidan tayinlov bo'yicha yuridik yordam ko'rsatishda qonunda belgilangan tartibda shaxsan ishtirot etishi shart.

Jinoyat ishida tayinlov asosida ishtirot etayotgan advokat fuqaroning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emas. Dastlabki tergov bosqichida himoya qilish topshirig'ini tayinlov yoki bitim (shartnoma) bo'yicha qabul qilgan advokat birinchi instansiya sudida himoya qilishni uzrli sabablarsiz rad etishga haqli emas.

Ish bo'yicha ishtirot etish topshirig'ini tayinlash yoki bitim (shartnoma) bo'yicha qabul qilgan advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning to'lovga qibiliyatsizligini vaj qilib, himoya qilishdan bosh tortishga haqli emas hamda murojaat qilgan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning ishi bo'yicha sud hukmi ustidan apellyatsiya shikoyatini tayyorlash va uni berish bosqichiga qadar himoyachi vazifalarini bajarishi kerak.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning talablari qanoatlantirilishiga kafolat bermasligi lozim. Da'vo yoki unga e'tirozning asosliligiga shubha bo'lsa ham advokat topshiriqni qabul qilishi mumkin, biroq ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga uning talablari qanoatlantirilmamasligi mumkinligini tushuntirishi shart.

Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning talablari yoki e'tirozlari asossizligiga ishonch komil bo'lganda va huquqiy pozitsiyasi bo'limganda, advokat bu haqda o'z fikrini ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga ma'lum qilishi kerak.

Agar da'vo yoki unga e'tirozlarning asossizligi sud muhokamasi davomida aniqlansa va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatning ishtirok etishini qat'iy talab qilsa, advokat qonun bilan asoslantirmasdan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning talablari va e'tirozlari bilan cheklanishi kerak.

Ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning o'z aybiga iqror bo'lganligi advokatning ushbu qarorning shubhali yoki isbot qilinmaganligini inkor etish huquqini cheklamaydi. Bunday holatda u ish bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)dan mustaqil huquqiy pozitsiyani egallashi va uni himoya qilish choralarini ko'rishi lozim.

Ishda mavjud dalillar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning harakatlarida e'lon qilingan aybdan yengilroq jinoyat tarkibi mavjudligini ko'rsatsa, advokat unga bu haqda ma'lum qilishi va u bilan yengilroq jinoyatni nazarda tutgan huquqiy pozitsiyani kelishib olishi zarur. Bunda ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) advokatning taklifiga rozi bo'lmasa, advokat o'zi mustaqil tanlagan pozitsiyadan kelib chiqqan holda himoyani amalga oshiradi.

Bir guruh shaxslar ishtirok etayotgan ishlarda ishonch bildiruvchi shaxslar (himoya ostidagi shaxslarni) o'rtasida himoya borasida ziddiyatlar mavjud bo'lsa, advokat sud tergovi vaqtida himoya nutqi uchun o'zining ishonch bildiruvchi shaxsi (himoya ostidagi shaxsi)ning aybini rad etadigan yoki aybdorligiga shubha tug'diradigan dalillar yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni to'plashi va tahlil qilishi lozim. Advokat boshqa sudlanuvchilarining holatini zaruratsiz yomonlashtirmasligi zarur. Advokat tomonidan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi

shaxs)ning manfaatlariga zid bo‘lgan boshqa sudlanuvchilarga qarshi qaratilgan harakatlari faqatgina bunday harakatlarsiz ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ni to‘liq himoya qilish mumkin bo‘lmaydigan holatlardagina asosli hisoblanadi.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning iltimosiga ko‘ra unga nisbatan chiqarilgan hukm ustidan, agar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) voyaga yetmagan bo‘lsa yoki ruhiy kasallikka chalingan bo‘lsa, sud hukmda advokatning vajlarini inobatga olmagan va so‘ralganidan og‘irroq jazo yoki og‘irroq jinoyat uchun jazo tayinlagan bo‘lsa yoxud jazoni yengillashtirish uchun huquqiy asoslar mavjud bo‘lsa, shikoyat qilishi kerak.

Agar mahkum (voyaga yetmaganlar va ruhiy kasallikka chalingan shaxslardan tashqari) hukm ustidan shikoyat qilishga e’tiroz bildirsса, advokat imkon qadar uning bu haqdagi qarorini yozma ravishda olishi kerak.

Advokat jabrlanuvchi, guvoh yoki boshqa shaxslarni yolg‘on ko‘rsatmalar berish uchun ko‘ndirish va advokatlik so‘rovi o‘tkazish chog‘ida so‘rovdan o‘tkazilayotgan shaxsning rozilgisiz tushuntirishlar olishga haqli emas.

Advokat o‘zi bajarayotgan ishi uchun haq sifatida to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni olish, shuningdek, o‘zi sarf qilgan chiqim va xarajatlar qoplanishiga haqlidir.

Yuridik yordam uchun haq miqdori advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning o‘zaro kelishuvi asosida belgilanadi va bitim (shartnoma) bilan rasmiylashtiriladi. Bunda ishning hajmi, murakkabligi, ishni bajarish uchun ketgan vaqt, advokatning tajribasi va malakasi, ish bajarish muddatlari, tezkorligi, yakuniy natijasi va boshqa holatlar hisobga olinishi mumkin.

Bitim (shartnoma)da ish ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning foydasiga hal bo‘lish-bo‘lmasligiga qarab

yuridik yordam uchun haq miqdori belgilanishi yoki advokatga qo'shimcha mukofot pullari to'lanishi nazarda tutilishi mumkin.

Advokatning yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi bitim (shartnoma)da ko'rsatilgan vazifalarni ta'minlash uchun ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)dan mol-mulk olishi taqiqilanadi, avans to'lovlari bundan mustasno.

Advokat siri

Advokatlik siriga rioya etish Qadimgi Rimdayoq mavjud edi. Chunonchi, ko'zga ko'ringan yurist Fransua Eten Mollo «Regles de la profession d'avokat» kitobida shunday ta'kidlaydi: “Ishonilgan sirlarni qat’iy saqlash o’sha paytlarda advokatura faoliyatining asosiy sharti bo’lgan”. “Advokat, – deydi metr Mrollo, – fuqarolarga ularning mulklari, obro’si va hayotini himoyalash uchun kerak. Qonun va davlat uni ushbu oliv mavqega tayinlaydi. Lekin uni munosib ravishda bajarish uchun unga, avvalo, ishonch bildiruvchi shaxsning ishonchi kerak; sir saqlanishiga aminlik bo‘lmagan joyda ishonch bo‘lmaydi”.

Advokat yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan ishonch bildiruvchi tomonidan unga ma'lum qilingan har qanday ma'lumotlarni ishonch bildiruvchining roziligidisiz e'lon qilish huquqiga ega emas. Advokatning bu eng muhim majburiyati alohida e'tiborni talab qiladi. Advokat advokatga murojaat qilinganlikning o'zidan, shuningdek, advokat tomonidan o'z ishonch bildiruvchi shaxslarga yuridik yordam ko'rsatilishi bilan bog'liq boshqa barcha ma'lumotlarni qamrab oluvchi advokatlik siriga qat’iy rioya qilishi kerak. Shu munosabat bilan advokat unga yuridik yordam so'rab murojaat qilinishi yoki bu yordam ko'rsatilishi tufayli unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas.

“Advokatura to'g'risida”gi qonunning 6-moddasiga ko'ra, advokatning telefon va boshqa muzokaralarini tinglash, yuridik yordam ko'rsatiladigan xonani tekshiruvdan o'tkazish, advokatlik siri saqlanishini xavf ostiga qo'yuvchi boshqa turdag'i tezkor-

qidiruv tadbirlarini o'tkazish, agar tegishli prokurorning sankziyasi bo'lmasa, taqiqlanadi. Ish bo'yicha advokat dosesi sanalmaydigan material va hujjatlar faqat sud qaroriga muvofiq tekshirilishi va ko'zdan kechirilishi, olib qo'yilishi va tortib olinishi mumkin.

"Advokatura to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida advokatning guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emasligining ko'rsatib o'tilganligi davlat tomonidan belgilangan advokatlik faoliyati kafolati va advokatlik sirining ta'minlanishiga bevosita aloqadordir. Mazkur qoidada advokatning advokatlik sirini ta'minlash bo'yicha kasbiy huquqi emas, balki davlatning advokatlik faoliyati mustaqilligining davlat kafolatini ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyati bayon etilgan.

Advokat (himoyachi)ning protsessual funksiyasi bilan o'sha ishning o'z bo'yicha guvohlik ko'rsatmasi berish majburiyatini birga olib borish ilojsizligidan kelib chiqadi. Ushbu me'yor JPK talablari bilan bog'liq. Unga ko'ra quyidagilar guvoh sifatida so'roqqa chaqirilishi mumkin emas: gumanlanuvchi, ayblanuvchining himoyachisi – jinoiy ish yuritilishida qatnashganligi tufayli unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida; advokat – yuridik yordam ko'rsatishi munosabati bilan unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida. Bu me'yorlarning amalga oshirilishi ishonch bildiruvchining advokatga u tomonidan o'zining kasbiy funksiyalari bajarilishi munosabati bilan ishonib topshirilgan ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Advokat himoyani amalga oshirishi tufayli ham, boshqa yuridik yordam ko'rsatilishi davomida ham unga aytigan ma'lumotlarni fosh etishga haqli emas. E'tibor qaratish kerakki, ba'zi holatlar advokatga unga muayyan shaxs yordam so'rab murojaat qilganidayoq, yuridik yordam so'rab murojaat qilinmasidan oldinoq ma'lum bo'ladi. Bunday holatlar ham advokatlik siriga kiradi.

Advokatning unga kasbiy faoliyati munosabati bilan ma'lum bo'lgan yoki ishonib bildirilgan holatlar va ma'lumotlar to'g'risida guvohlik berish majburiyatidan ozod etilishi har bir fuqaroning

shaxsiy hayoti va oilaviy sirining daxlsizligi, o‘z obro‘si, sha’nini himoya qilish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi va shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun faqat advokatga sir sifatida ishonib bildirilgan axborot ushbu shaxsning irodasiga qarshi boshqa maqsadlarda, jumladan, uning o‘ziga qarshi guvohlik sifatida ishlatilmasligining kafolati bo‘ladi.

Advokatning huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, boshqa davlat, jamoat tashkilotlari va o‘zga tashkilotlar bilan munosabatlari. Advokat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud, boshqa davlat va jamoat tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ularning ishonchli vakili ekanligidan kelib chiqqan holda kasbiy vazifalarini bajaradi.

Advokat tergov harakatlari va sud muhokamasini qasddan cho‘zish hamda ularni o‘tkazish muddatlarini buzishga haqli emas.

Advokat sud yoki tergov protsessida qonun hujjatlari normalariga rioya etishi, sud hamda protsessning boshqa ishtirokchilariga hurmat ko‘rsatishi, agar ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning huquqlari buzilsa, bunday huquqbazarliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rishi lozim.

Sudya va protsessning boshqa ishtirokchilarini harakatlariga e’tiroz bildirishda advokat o‘zini odob doirasida tutishi va qonun hujjatlari amal qilishi kerak.

Advokatning O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari organlari, shuningdek, malaka komissiyalari bilan munosabatlari. Advokat Advokatlar palatasi organlari, hududiy boshqarmalarini hurmat qilishi, a’zolik badallarini o‘z vaqtida to‘lashi, ular tomonidan qabul qilinadigan advokatlik kasb faoliyatini tartibga soluvchi qaror, yo‘riqnomalarini qoidalarni aniq bajarishi shart.

Advokat Advokatlar palatasi organlari, hududiy boshqarmalariga kasbiy va jamoatchilik faoliyati bilan bog‘liq barcha masalalarda yordam ko‘rsatishi zarur.

Advokat Advokatlar palatasi organlari, hududiy boshqarmalari, malaka komissiyalari taklifiga binoan belgilangan muddatda hozir bo‘lishi darkor.

Belgilangan muddatda yetib kelishning imkonи bo‘lmasa, advokat buning sababini oldindan ma’lum qilishi lozim.

Advokat, agar o‘ziga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan yoki fuqarolik ishida uning sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan da’vo taqdim etilgan bo‘lsa, bu haqda advokatlik tuzilmasi rahbarini xabardor qilishi shart.

Advokatlik tuzilmasi rahbari bu haqda Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasiga ma’lum qilishi lozim.

Advokat murakkab axloqiy vaziyatlarda o‘zini qanday tutish borasida aniq fikrga ega bo‘lmasa, u tushuntirish berishni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasiga murojaat qilish huquqiga ega. Bunday tushuntirish berish rad qilinishi mumkin emas. Ushbu qoidalar talablarini qo‘llash bo‘yicha Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasining tushuntirishlariga muvofiq harakat qilgan advokat intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va ushbu qoidalar talablari buzilsa, biroq kam ahamiyatli bo‘lganligi sababli advokatning sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushirmaydigan, advokaturaning obro‘sini to‘kmaydigan hamda ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ga, Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalariga jiddiy ziyon yetkazmaydigan harakati (harakatsizligi) intizomiy jazo choralarini qo‘llanilishiga sabab bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 10- va 14-moddalarida advokatning intizomiy javobgarligi masalalari bayon qilingan.

**Advokatga nisbatan jinoiy ish O‘zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori,
viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglash-
tirilgan prokurorlar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.**

Advokat tomonidan advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilganligi unga nisbatan intizomiy choralar qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi.

Intizomiy ish yuritish malaka komissiyalari yoki Oliy malaka komissiyasi qarori bilan qo‘zg‘atiladi.

Intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodining advokat tomonidan buzilishi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi yoki adliya organi tomonidan aniqlanganligi;
- advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan jismoni yoki yuridik shaxslarning murojaatlari;
- sudning advokatga nisbatan chiqargan xususiy ajrimi.
- Intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha advokatga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralar qo‘llanilishi mumkin:
 - ogohlantirish (malaka komissiyasining qaroriga asosan);
 - litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to‘xtatib turish (O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 15-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi va uchinchi xatboshilariga muvofiq);
 - litsenziyaning amal qilishini tugatish (O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 16-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilariga muvofiq).

Malaka komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinguniga qadar advokat intizomiy ish qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lgan shikoyatni bergen shaxs bilan yarashuv choralarini ko‘rishga haqli.

Advokatlik tuzilmalari mehnat intizomini buzganlik uchun advokatga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy jazo choralarini qo‘llashga haqli.

Advokatga nisbatan intizomiy jazo nojo‘ya xatti-harakat sodir etilgan kundan e’tiboran olti oy o’tganidan keyin, moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish etish yoki tekshirish natijalari bo‘yicha esa advokat tomonidan nojo‘ya xatti-harakat sodir etilgan kundan e’tiboran ikki yil o’tganidan keyin qo‘llanilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2009-yil 14-mart-dagi 69-mh-son buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan. Ushbu nizomning 37-48-moddalarida advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish tartibi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra intizomiy ish yuritishni qo‘zg‘atish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1) advokatura to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, advokatlarning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodining advokat tomonidan buzilishi hududiy boshqarma yoki adliya organi tomonidan aniqlanganligi;

2) advokatning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari;

3) sudning advokatga nisbatan chiqqargan xususiy ajrimi.

Yuqorida sanab o‘tilgan 3 ta asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, tegishli hududiy boshqarma yoki adliya organi rahbari malaka komissiyasiga vajlarni bayon etgan holda advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish to‘g‘risida taqdimnomaga kiritish orqali mazkur advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish qo‘zg‘atadi. Taqdimnomaga u bilan bog‘liq barcha hujjatlar va materiallar ilova qilinadi.

Intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi taqdim-noma hududiy boshqarma tomonidan ro‘yxatga olinadi va barcha hujjatlar bilan birga mas’ul kotibga topshiriladi. Mas’ul kotib ularni qabul qilib olgan kunning ertasidan kechiktirmay advokatni unga nisbatan intizomiy ish yuritish qo‘zg‘atilganligi to‘g‘risida xabardor qiladi.

Mas’ul kotib komissiya a’zolari va manfaatdor shaxslarni komissiya majlisining o’tkazilishidan kamida o’n kun oldin majlis o’tkaziladigan sana, vaqt va joy to‘g‘risida xabardor qiladi.

Mas’ul kotib qaysi advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, o‘sha advokatni ish materiallari bilan tanish-tirishi va undan komissiya nomiga ushbu ish yuritish bo‘yicha yozma tushuntirishlar berishni talab qilishi kerak. Advokatning tu-shuntirish berishni rad qilishi intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish va intizomiy jazo choralarini qo‘llashga to‘sqinlik qilishi mumkin emas.

O‘ziga nisbatan intizomiy ish yuritish qo‘zg‘atilgan advokat:

- intizomiy ish yuritish qo‘zg‘atilishiga asos bo‘lgan barcha materiallar bilan tanishib chiqishga;
- intizomiy ish yuritish holatlari bo‘yicha yozma shaklda tushuntirishlar berish va qo‘srimcha ma’lumotlar taqdim etishga;
- malaka komissiyasi yoki Oliy malaka komissiyasi qaror qabul qilguniga qadar (agar bu uning ko‘rib chiqish predmeti bo‘lsa), intizomiy ish qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lgan shikoyatni bergen shaxs bilan yarashuv choralarini ko‘rishga haqli.

Advokat malaka komissiyasi majlisining o’tkaziladigan sanasi, vaqt va joyi to‘g‘risida belgilangan tartibda xabardor qilinganligiga qaramasdan, komissiyaning majlisiga kelmagan taqdirda, komissiyaning qarori bilan intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqish keyingi majlisga qoldirilishi yoki uning ishtirokisiz ko‘rib chiqilishi mumkin.

Agar intizomiy ish yuritishni ko‘rib chiqishda malaka komissiyasi intizomiy ish yuritish bilan bog‘liq ayrim masalalarni o‘rganish talab qilinadi, degan xulosaga kelsa, bunday o‘rganishni o’tkazish komissiyaning qarori bilan uning a’zolaridan birining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Malaka komissiyasi tomonidan advokatga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash to'g'risida qaror qabul qilinishida, sodir etilgan huqubzalarlikning og'irligi, uning sodir etilgan holatlari, advokatning oldingi faoliyatini va xulq-atvori e'tiborga olinadi.

Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha malaka komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- ogohlantirish to'g'risida;
- litsenziyaning amal qilishini olti oygacha muddatga to'xtatib turish to'g'risida;
- litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida;
- intizomiy jazo choralari qo'llashni rad etish va intizomiy ish yuritishni tugatish to'g'risida.

Malaka komissiyasining litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qarori u qabul qilingan kunda hududiy boshqarma tomonidan tegishli adliya organiga yozma shaklida ma'lum qilinadi. Adliya organi o'sha kunning o'zida malaka komissiyasining qarori asosida advokat maqomini to'xtatib turish va tugatish to'g'risida buyruq chiqaradi.

Intizomiy jazo choralari qo'llashni rad etish va intizomiy ish yuritishni tugatish to'g'risidagi qaror malaka komissiyasi tomonidan, agar intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish vaqtida u advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish to'g'risidagi taqdimnomada bayon etilgan vajlar tasdiqlanmadidi, degan xulosaga kelsa, shuningdek, advokatning intizomiy ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan shikoyatni bergen shaxs bilan yarashuvga erishganligi munosabati bilan qabul qilinadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Advokatning kasb etikasi qoidalariga rioya qilmasligi qonunga binoan qanday javobgarlikni keltirib chiqaradi?
2. Advokatni intizomiy javobgarlikka tortish va uni ko'rib chiqish tartibini bayon qiling.

3. Advokatni intizomiy javobgarlikka tortish asoslarini tavsiflang.

4. Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha malaka komissiyasi qanday qarorlar qabul qiladi?

KAZUSLAR

1-kazus

2016-yilda JIB Toshkent shahar Chilonzor tuman sudida P. Zoirov sudlanuvchi K. Usmonovning himoyachisi sifatida jinoyat ishida ishtirok etadi. Ushbu jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi sifatida Sh. Hasanov e'tirof etilgan edi.

2017-yilda fuqaro Sh. Hasanov tomonidan O'zbekiston Respublikasi JKning 104-moddasi 2-qismi "e" bandida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganligi sababli unga tergovchi F. Umarovning qaroriga ko'ra davlat tomonidan P. Zoirov himoyachi sifatida tayinlangan.

Himoyachi P. Zoirov ushbu ishni qabul qilishdan bosh tortib, bu advokatning kasb etika qoidalariga zid ekanligini bildirdi.

Mazkur holatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

2018-yil 12-iyul kuni Jinoyat ishlari bo'yicha Yunusobod tuman sudida sudlanuvchi A. Fazliddinovga oid jinoyat ishini sud muhokamasida ko'rish davomida A. Fazliddinovning himoyachisi Z. Hasanov va davlat ayblovchisi U. Zoirov o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqqan.

Raislik qiluvchi sudya F. Jamoliddinov ularning sud majlisida tartibni buzganligi, raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysun-

maganligi, shu bilan birga, sudni behurmat qilganligi sababli himoyachi Z. Hasanov va davlat ayblovchisi U. Zoirovlarini bunday harakatlarning takrorlanishi ularni sud majlisi zalidan chiqarib yuborishga sabab bo‘lishi, bundan tashqari, ma’muriy javobgarlikka tortilishi ham mumkinligi haqida ogohlantiradi.

2018-yil 18-iyul kuni sud tergovi davomida yana himoyachi Z. Hasanov va davlat ayblovchisi U. Zoirovlar o‘rtasida kelishmovchilik kelib chiqdi. Natijada raislik qiluvchi alohida ajrim chiqarib, har biriga eng kam oylik ish haqining 4 baravaridan ma’muriy jarima tayinlagan.

Himoyachi Z. Hasanov ushbu ajrim noqonuniy chiqarilganligi yuzasidan yuqori turuvchi sudga murojaat qildi.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

VII BOB. ADVOKATNING FUQAROLIK SUDI ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI

2018-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda FPK deb yuritiladi)ning 7-bobi sudda vakillik institutiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu kodeksning 65-moddasiga ko‘ra, fuqarolar o‘z ishlarini sudda shaxsan yoki o‘z vakillari orqali yuritishi mumkin.

Fuqarolik protsessida vakillik instituti fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-, 116-moddalarida mustahkamlangan sud orqali himoyalanish va malakali yuridik yordam olish kabi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Advokatning sudda vakil sifatida qatnashishi shartnomaga bo‘yicha vakillikning bir turi hisoblanadi. Shu sababli sudda vakil sifatida advokatning ishtiroki haqida gapirishdan oldin vakillik

instituti to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sudda vakillik taraflar, uchinchi shaxslar, arizachilarning subyektiv huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoyasining protsessual kafolati vazifasini bajarishga qaratilgan.

Suddagi vakil – ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlari uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 65-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslarga tegishli ishlarni har doim ularning rahbarlari yoki vakillari yuritadi. Fuqarolar esa o‘z ishlarini sudda shaxsan yoki vakil orqali yuritishi mumkin. Bunda fuqaroning shaxsan ishtiroki uni mazkur ish bo‘yicha vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko‘ra, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda vakillikni ikki turga ajratish mumkin:

- qonuniy, ya’ni majburiy vakillik (FPK 66-moddasi);
- shartnoma bo‘yicha, ya’ni ixtiyoriy vakillik (FPK 67-moddasi).

Qonuniy vakillik belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan, bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan shaxslar huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariiga daxldor fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishda majburiydir. Qonuniy vakillik kelib chiqishi uchun huquq va manfaatlari himoya qilinayotgan shaxs roziligi talab etilmaydi.

Sudda vakillik boshqa barcha hollarda shartnomaga asoslangan bo‘ladi va faqat ishonch bildiruvchining bunga xohishi mavjud bo‘lganda yuzaga keladi.

Sudda qonuniy vakil sifatida ota-onalar, vasiylar, homiylar va FPK 66-moddasida ko‘rsatilgan boshqa shaxslar ishtirok etadi.

Ishonch bildiruvchi o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha sudda ish yuritishni shartnomaga bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 67-moddasiga muvofiq, sudda shartnomaga bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida quyidagilar ishtirok etishi mumkin:

- 1) advokatlar, ya’ni qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar;
- 2) to‘g‘ri va yon shajara bo‘yicha qarindoshlar, shuningdek, er (xotin) yoki uning qarindoshlari;
- 3) yuridik shaxslarning xodimlari – mazkur yuridik shaxslar ishlari bo‘yicha;
- 4) notijorat tashkilotlar vakolatli vakillari – mazkur tashkilotlar a’zolarining ishlari bo‘yicha;
- 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlar vakolatli vakillari;
- 6) ishtirokchilardan biri boshqa ishtirokchilarning topshirig‘i bo‘yicha;
- 7) jismoniy shaxslar vakili sifatida sud tomonidan ishda qatnashishga ruxsat berilgan boshqa shaxslar, basharti ular vakil sifatida sudda **kasb tariqasida** (haq evaziga yoki haq olmay) faoliyat olib borishmasa.

Qonuniy vakillar ham, shartnomaga bo‘yicha vakillar ham voyaga yetgan va muomalalaga layoqatli bo‘lishi kerak.

Ishonch bildiruvchi qarindosh shaxslar doirasini aniqlashda sud Fuqarolik protsessual kodeksi va Oila kodeksining talablariga amal qilishi lozim bo‘lib, ularga ko‘ra quyidagilar qarindoshlar hisoblanadi:

- ota-onalar, bolalar, nevaralar, bobo, buvi, evaralar, katta bobo, katta buvi;

- aka-uka, opa-singillar, ularning farzandlari, ota-onaning aka-uka, opa-singillari, ularning farzandlari, bobo, buvilarning aka-uka, opa-singillari, ularning farzandlari va h.k.;
- o‘gay aka-uka, opa-singillar.

Yuridik shaxs xodimi deganda, mazkur tashkilotda mehnat shartnomasi (kontrakt)ga asosan ishlayotgan shaxs tushuniladi.

Sudda notijorat tashkilotlar vakolatli vakillari sifatida mazkur notijorat tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt)ga asosan ishlayotgan va uning shtatida turgan shaxslar bo‘lishi mumkin.

Shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillar ishga kirishishi uchun huquq beruvchi hujjatlar FPKning 53-moddasiga muvofiq berilgan ishonchnomalar hisoblanadi. Advokatlar, yuridik shaxs rahbari, shuningdek, ishonch bildiruvchi sud majlisida bergan arizaga (og‘zaki yoki yozma) binoan shartnoma bo‘yicha vakil sifatida ishda qatnashishi uchun FPKning 53-moddasi uchinchi qismiga muvofiq ijozat berilgan jismoniy shaxsning qarindoshlari va boshqa vakillari bundan mustasno.

Shartnoma bo‘yicha ayrim vakillarning ishga kirishishiga ijozat berilishi uchun qonun sudga, ishonchnomadan tashqari, yana boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qiladi, jumladan:

ishonch bildiruvchining qarindoshlari uchun – ishonch bildiruvchi va vakil orasida qarindoshlik aloqalarini tasdiqlovchi hujjatlar;

yuridik shaxsning rahbari uchun – uning mansab mavqeyini tasdiqlovchi hujjat.

Advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo‘lib, u advokatga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini beradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ayrim protsessual harakatlarni sodir etish uchun qonun maxsus vakolatlar mavjud bo‘lishini talab etib, shartnoma bo‘yicha vakil, shu jumladan, advokat va ishga sud majlisida ishonch bildiruvchining arizasiga binoan kirishgan shaxs ham bu harakatlarni faqat ulardan har biri qonunga muvofiq

rasmiylashtirilgan ishonchnomada qayd etilgan holdagina sodir etishga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 69-moddasiga ko‘ra, bunday huquqlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- da’vo talablaridan butunlay yoki qisman voz kechish;
- da’vo asosi yoki predmetini o‘zgartirish;
- da’vo miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirish;
- da’vogar talablarini tan olish;
- kelishuv bitimi tuzish;
- vakolatlarni boshqa shaxsga o‘tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish);
- sudning hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat berish;
- ijro varaqasini undiruvga qaratish;
- undirilgan mol-mulk yoki pulni olish.

Shuni nazarda tutish lozimki, qonuniy vakillar, shartnoma bo‘yicha vakillardan farqli ravishda, FPKning 69-moddasi 2-qismida ko‘rsatilgan barcha protsessual harakatlarni maxsus vakolat olmagan holda mustaqil sodir etishga haqlidir.

Advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo‘lib, u advokatga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini beradi.

Vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish. Advokatning vakolatlari qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi FPKda advokatning vakolatlarini qay tarzda rasmiylashtirish zarurligi ko‘rsatilmagan va kodexsda havolaki norma nazarda tutilgan. Bu O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuni 4-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra advokatning ma’lum bir ishni yuritishga doir vakolati order bilan tasdiqlanadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs, uning vakili o‘z vakolatlarini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni taqdim etmagan yoki qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmagan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda sud tegishli shaxsning ishda ishtirok etishga oid vako-

latlarini tan olishni rad etadi. Bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 70-moddasiga ko‘ra, quyidagilar sudda vakillik qilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar hisoblanadi:	
1.	voyaga yetmagan shaxslar, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno;
2.	vasiylik va homiylik belgilangan shaxslar;
3.	sudyalar, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, sud devoni xodimlari, bundan ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) sifatida, shuningdek, tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining vakili sifatida qatnashgan hollar mustasno;
4.	manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariiga zid bo‘lgan shaxslarga huquqiy yordam ko‘rsatayotgan yoki ilgari yordam ko‘rsatgan shaxslar;
5.	sudya, prokuror, sud majlisi kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo‘lgan shaxslar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda shartnomha bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida kimlar ishtirot etadi?
2. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish tartibini tavsiflang.
3. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishda ishtirot etuvchi shaxslar va ularning vakillari vakolatlarini tekshirish tartibini bayon qiling.
4. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudda vakil bo‘la olmaydigan shaxslarni tavsiflab bering.

KAZUSLAR

1-kazus

Zangiota tumani hokimligiga fuqarolik ishida fuqaro K. Umar-jonovning huquq va manfaatlarini himoya qilayotgan advokat N. Shakirovdan uy-joy qurish uchun yer ajratishga oid nizo yuzasidan so‘rov kelib tushdi. So‘rovda advokat ish bo‘yicha javobgar fuqaro Toshevga yer ajratilishining huquqiy asoslari va zarur hujjatlardan nusxalarni taqdim etishni so‘ragandi.

Advokat so‘rovi bilan bir vaqtning o‘zida hokimlikka O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning fuqaro Toshevga yer ajratilishiga oid ma’lumotni taqdim etish yuzasidan so‘rov xati kelib tushdi. Hokimlik yuristkonsulti advokatning so‘rovini rad etib, javob xatida mazkur ma’lumotlar va hujjatlar faqatgina tergov va sud organlari talabi asosida berilishini ma’lum qildi. Biroq Ombudsman so‘roviga hokimlikning yuristkonsulti rad javobini bermasdan, so‘ralgan barcha ma’lumot va hujjatlarni to‘liq taqdim etdi.

Hokimlik fuqaro Toshevga Ombudsman so‘rovi bilan taqdim etilgan ma’lumot va hujjatlar asosida, fuqarolik ishlari bo‘yicha sud ish yuzasidan uning foydasiga qaror chiqardi hamda tuman hokimining Yakubovga uy-joy qurish uchun yer ajratilishi to‘g‘risidagi qarorini qonuniy deb tan oldi. Shu bilan birga, advokatning hokimlik mansabдор shaxslari xatti-harakatlarini noqonuniy deb topish haqidagi iltimosnomasi suda tomonidan e’tiborsiz qoldirildi. Advokat N. Shakirov yuqori turuvchi sud instansiyasiga apellyatsiya shikoyatini yozdi hamda shikoyatida yuqoridagi nizo bo‘yicha huquqiy normalar buzilganligi, shuningdek, hokimlik yuristkonsulti va suda yuridik oliyghohda birga tahsil olganligini bildirib o‘tdi.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

Buxoro shahrida joylashgan “Adolat” advokatlar hay’ati a’zosi, advokat Usmonov tanishining iltimosiga ko‘ra, fuqarolik ishlari bo‘yicha Toshkent viloyat sudiga merosga doir mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risida 62 yoshli Safayevaning manfaatini ko‘zlab, da’vo arizasi kiritdi.

Sud majlisi belgilangan kunda sudya majlisni ochiq deb e’lon qilib, tomonlarning kelgan-kelmaganligini aniqlash, ularning vakolatlarini tekshirish davomida, advokatning ish joyi Buxoroda ekanligini vaj qilib, Usmonovga ish yuritishga vakolatli emasligini bildirdi va arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risida ajrim chiqardi.

Advokat bunga qat’iy e’tiroz bildirib, agar ish yuritishga vakolati bo‘lmasa, bu da’vo arizasini qabul qilish jarayonida hal qilinishi kerakligini ta’kidladi.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

VIII BOB. ADVOKATNING IQTISODIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI

2018-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi advokat ishtiroki sudda vakillik bobida berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda IPK deb yuritiladi)ning 61-moddasiga ko‘ra, shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillari bo‘lishi mumkin bo‘lganlar ro‘yxatda advokat birinchi bo‘lib sanab o‘tilgan.

Sudda yuridik shaxslarning ishlarini ularning qonun yoki ta’sis hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladigan organlari va (yoki) vakillari yuritadi.

Fuqarolar o‘z ishlarini sudda shaxsan o‘zlari va (yoki) vakillari orqali yuritishga haqlidir. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirot etishi uni ish bo‘yicha vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum qilmaydi.

Sudda vakillik taraflar, uchinchi shaxslar, arizachilar subyektiv huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoyasining protsessual kafolati vazifasini bajarishga qaratilgan.

Suddagi vakil – ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlari uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir.

‘Ozbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 61-moddasiga asosan, sudda iqtisodiy ishlar bo‘yicha vakillik ikki turga ajratiladi – qonuniy, ya’ni majburiy vakillik (IPK 61-moddasi 3-qismi) va shartnomma bo‘yicha, ya’ni ixtiyoriy vakillik (IPK 61-moddasi 4-qismi).

Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olgan shaxslar, vasiylar yoki homiylar) himoya qiladi. Qonuniy vakillar sudda ish yuritishni o‘zlari tanlagan vakilga topshirishi mumkin.

Qonuniy vakillik kelib chiqishi uchun huquq va manfaatlari himoya qilinayotgan shaxs roziligi talab etilmaydi.

Sudda vakillik boshqa barcha hollarda shartnomaga asoslangan bo‘ladi va faqat ishonch bildiruvchining bunga xohishi mavjud bo‘lganda yuzaga keladi.

Agar qonunda bu bevosita nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagilar shartnomma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillar bo‘lishi mumkin:

- 1) advokatlar;
- 2) yuridik shaxslarning xodimlari – shu yuridik shaxslarning ishlari bo‘yicha;

3) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari – shu tashkilotlar a’zolarining ishlari bo‘yicha;

4) qonunda boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;

5) birgalikdagi protsessual ishtirokchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig‘i bo‘yicha;

6) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga binoan sud tomonidan ruxsat berilgan boshqa shaxslar.

Sudda vakil sifatida ishlarni yuritish bo‘yicha professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug‘ullanishi mumkin.

Qonuniy vakillar ham, shartnomalar bo‘yicha vakillar ham voyaga yetgan va muomalaga layoqatli bo‘lishi kerak.

Shartnomalar bo‘yicha ayrim vakillar ishga kirishishiga ijozat berilishi uchun qonun sudga, ishonchnomadan tashqari, yana boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qiladi, jumladan:

ishonch bildiruvchining qarindoshlari uchun – ishonch bildiruvchi va vakil orasida qarindoshlik aloqalarini tasdiqlovchi hujjatlar;

yuridik shaxsning rahbari uchun – uning mansab mavqeyini tasdiqlovchi hujjat.

Advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo‘lib, u advokatga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini beradi.

Vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish. Advokatning vakolatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida advokatning vakolatlarini qay tarzda rasmiylashtirish zarurligi ko‘rsatilmagan va kodeksda havolaki norma nazarda tutilgan.

IPKnинг 62-moddasi 3-qismiga ko‘ra, advokatning vakolatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafo-

latlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuning 4-moddasida o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra advokatning ma’lum bir ishni yuritishga doir vakolati order bilan tasdiqlanadi. IPKnинг 62-moddasi 1-qismiga binoan ishonchnomaning orderdan farqini ko‘rsatib o‘tish joiz. Chunki ishonchnoma nafaqat ma’lum bir ishni iqtisodiy sudda olib borish uchun, balki ma’lum muddatga bir qancha turli ishlar yoki bir guruhdagi aynan bir xil ishlar yoxud tashkilot yoki fuqaroning barcha ishlarini ishonchnoma amal qiladigan muddat davomida yuritishga imkon beradi. Order faqat ma’lum bir alohida ishni olib borish uchun beriladi. Yana bir o‘ziga xos farqli jihat shundaki, ishonchnoma ishonch bildirayotgan shaxs – yuridik shaxs rahbari yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs tomonidan beriladi. Order esa advokatlik byurosi, firmasi, hay’ati boshlig‘i (rahbari) tomonidan beriladi.

Ishga kirishish uchun huquq beruvchi hujjatlar shartnoma bo‘yicha vakillarga protsess ishtirokchisining faqat umumiy huquqlarini berib, ularga quyidagilar kiradi: ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nusxalar ko‘chirish, raddiya berish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar va odil sudlovnvi amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arizalar berish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko‘rish davomida tug‘iladigan hamma masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzlari, iltimosnomalari, vajlariga qarshi e’tiroz bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori va buyrug‘i ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruqning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo‘lish va o‘z huquqlarini amalga oshirish.

Ayrim protsessual harakatlarni sodir etish uchun qonun maxsus vakolatlar mavjud bo‘lishini talab etib, shartnoma bo‘yicha vakil, shu jumladan, advokat va ishga sud majlisida ishonch bil-

diruvchining arizasiga binoan kirishgan shaxs ham bu harakatlarni faqat ulardan har biri qonunga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnomada qayd etilgan holdagini sodir etishga haqlidir. Bunday huquqlar jumlasiga quyidagilar kirdi:

- da'vo talablaridan butunlay yoki qisman voz kechish;
- da'vo asosi yoki predmetini o'zgartirish;
- da'vo miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish;
- da'vogar talablarini tan olish;
- kelishuv bitimi tuzish;
- vakolatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish);
- sudning hal qiluv qarori (ajrimi) ustidan shikoyat berish;
- ijro varaqasini undiruvga qaratish;
- undirilgan mol-mulk yoki pulni olish.

Shuni nazarda tutish lozimki, qonuniy vakillar, shartnoma bo'yicha vakillardan farqli ravishda, qonunchilikda ko'rsatilgan barcha protsessual harakatlarni maxsus vakolat olmagan holda mustaqil sodir etishga haqlidir.

Bundan xulosa qilish mumkinki, vakilning ushbu moddada ko'rsatilgan harakatlarning har birini amalga oshirishga bo'lган vakolatlari u qaysi shaxs tomonidan vakil qilinayotgan bo'lsa, o'sha shaxs bergen ishonchnomada maxsus nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ular vakillarining vakolatlarini tekshirishi shart.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ular vakillarining vakolatlarini tan olish va ularning sud majlisida ishtirok etishiga ruxsat berish to'g'risidagi masalani mazkur shaxslar sudga taqdim etgan hujjatlarni tekshirish asosida hal etadi. Mazkur shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Zarur bo'lganda esa ularning ko'chirma nusxalari ishga qo'shib qo'yiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs, uning vakili o'z vakolatlarini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni taqdim etmagan yoki qonun

hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmanan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda sud tegishli shaxsning ishda ishtirok etishga oid vakolatlarini tan olishni rad etadi. Bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi IPKning 65-moddasiga ko‘ra, quyidagi shaxslar sudda vakil bo‘la olmaydi:

1.	To‘la muomala layoqatiga ega bo‘lmanan yoxud vasiylik yoki homiylik ostidagi shaxslar;
2.	Sudyalar, tergovchilar, surishtiruvchilar, prokurorlar va sud devoni xodimlari.

Mazkur shaxslar sud protsessida tegishli sudlar, prokuratura organlarining vakili yoki qonuniy vakil sifatida ishtirok etayotgan hollarga nisbatan ushbu qoida tatbiq etilmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda shartnomaga bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida kimlar ishtirok etadi?
2. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish tartibini tavsiflang.
3. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va ular vakillarining vakolatlarini tekshirish tartibini bayon qiling.
4. Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sudda vakil bo‘la olmaydigan shaxslarni tavsiflab bering.

KAZUSLAR

1-kazus

Advokat V. Qo‘ldoshov o‘zining himoyasi ostidagi da’vogar A. Po‘latjonovni himoya qilish maqsadida sudga da’vogar tomonidan taqdim etilgan sudda vakil bo‘lib ishtirok etish bo‘yicha ishonchnomani taqdim etdi.

Biroq u sudga biror-bir advokatlik tuzilmasining a’zosi ekanligi yoxud vakillik huquqini beruvchi orderning bor yoki yo‘qligi haqida hech qanday ma’lumot taqdim etmadи.

Sud V. Qo‘ldoshovning manfaati uchun qaror chiqarib berdi. Biroq mag‘lub tomonning advokati I. Rustamov iqtisodiy sudning qaroriga nisbatan shikoyat keltirib, V. Qo‘ldoshovning noqonuniy ravishda vakil bo‘lib ishtirok etganligini sabab qilib ko‘rsatdi.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

Plastik buyumlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi “TALIMMA” AJ va “Mars” ishlab chiqarish korxonasi o‘rtasida tuzilgan shartnomaning ayrim bandlarini ijro etish borasida nizo kelib chiqdi.

Toshkent shahar tumanlararo iqtisodiy sudida ikkala tarafning manfaatlari “Huquq dunyosi” advokatlar hay’ati advokatlari tomonidan himoya qilindi. Protsess davomida advokat Boltayev (“Mars” korxonasi vakili) advokat Teshayev (“TALIMMA” AJ vakili) bilan kelishuv bitimini tuzishdi.

Biroq “TALIMMA” AJ direktori mazkur bitimni tan olishdan bosh tortdi.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

IX BOB. ADVOKATNING MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi bilan sug‘orilgan, xalqaro talablarga to‘la javob beradigan insonparvar qonunlarning qabul qilinishi huquqiy demokratik davlat sari ulkan qadam tashlanganidan dalolatdir. Ayniqsa, aholining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy ongri yuksaltirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish huquqiy demokratik davlat barpo etishda muhim yo‘nalishlardan biridir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy tafakkuri darajasi oshirilmas ekan, fuqarolarning qonuniy manfaatlari buzilishi hollariga chek qo‘yib bo‘lmaydi. Aynan aholi huquqiy tarbiyasining talab darajasida emasligi, ayrim mansabdor shaxslarning huquqiy tafakkur va huquqiy madaniyatining sayozligi sud amaliyotida mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarning ko‘payishiga olib kelmoqda.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan “Inson huquqlari va erkinliklari Deklaratsiyasi”da har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, shuningdek, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlab qo‘yilgan.

Advokat ma’muriy sud ishlarini yuritishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ham qonunda nazarda tutilgan, lekin sudda ish yuritish bo‘yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug‘ullanishi mumkin.

Ma’muriy sud ishlarini yuritishda **shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillik to‘g‘risidagi** Kodeksning 60-moddasida quyidagicha belgilab qo‘yilgan:

ishonch bildiruvchi o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riq-lanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudda ish yuritishni shartnomaga bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshiradi.

Quyidagilar shartnomaga bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil bo‘lishi mumkin:

- 1) advokatlar;
 - 2) nasl-nasab shajarasiga bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan yoki yon shajara bo‘yicha qarindoshlar, shuningdek, er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;
 - 3) yuridik shaxslarning xodimlari — ushbu yuridik shaxslarning ishlari bo‘yicha;
 - 4) notijorat tashkilotlarning vakolatlari — ushbu tashkilotlar a’zolarining ishlari bo‘yicha;
 - 5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatlari;
 - 6) birgalikda protsessual ishtirok etuvchilardan biri boshqa bir-galikdagi ishtirokchilarning topshirig‘i bo‘yicha;
 - 7) ishni ko‘rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishga ruxsat berilgan shaxslar.
- Sudda ish yuritish bo‘yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug‘ullanishi mumkin.

Shuningdek, vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish Kodeksning 61-moddasida quyidagicha keltirib o‘tilgan:

Vakilning vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Fuqarolar tomonidan beriladigan ishonchnomalar notariuslar yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdar shaxslar tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mansabdar shaxsning vakillari tegishli organ rahbari yoki mansabdar shaxsning imzosi bilan beriladigan ishonchnoma bo‘yicha ish olib boradi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, imzo yuridik shaxsning muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslarning rahbarlari sudga o‘z xizmat mavqeyi yoki vakolatlarini tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etadi.

Advokatning vakolatlari qonun hujjatlarda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Vakilning vakolatlari quyidagilardan iborat:

Sudda ish yuritish vakolatlari vakilga barcha protsessual harakatlarni vakolat beruvchi nomidan amalga oshirish huquqini beradi.

Shartnoma bo‘yicha vakillik qiluvchining arz qilingan talabdan to‘liq yoki qisman voz kechish, uning asosi yoki predmetini o‘zgartirish, arizachining talablarini tan olish, vakolatlarni boshqa shaxsga o‘tkazish (boshqa shaxsga ishonib topshirish), sud hujjati ustidan shikoyat qilish, sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish to‘g‘risidagi arizani imzolash, sud hujjatining majburiy ijro etilishini talab qilish vakolatlarining har biri vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vakillari vakolatlarini tekshirish. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vakillari vakolatlarini tekshirishi shart.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vakillari vakolatlarini tan olish va ularning sud majlisida ishtirok etishiga ruxsat berish to‘g‘risidagi masalani mazkur shaxslar sudga taqdim etgan hujjatlarni tekshirish asosida hal etadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vakillari vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi, zarur bo‘lganda esa ularning ko‘chirma nusxalari ishga qo‘sib qo‘yiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs, uning vakili o‘z vakolatlarini tasdiqlash uchun zarur hujjatlarni taqdim etmagan yoki qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmagan hujjatlarni taqdim etgan

taqdirda, sud tegishli shaxsning ishda ishtirok etishga oid vakolatlarini tan olishni rad etadi, bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi.

Shuningdek, Kodeksning 64-moddasida **sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslar** ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1) voyaga yetmagan shaxslar, bundan qonun hujjalarda belgilangan hollar mustasno;

2) vasiylik va homiylik belgilangan shaxslar;

3) sudyalar, prokurorlar, tergovchilar, surishtiruvchilar, sud devoni xodimlari. Ular qonuniy vakil (ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) sifatida, shuningdek, tegishli sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlarining vakili sifatida ishtirok etgan hollar bundan mustasno;

4) manfaatlari vakolat beruvchining manfaatlariga zid bo'lgan shaxslarga huquqiy yordam ko'rsatayotgan yoki ilgari yordam ko'rsatgan shaxslar;

5) suda, prokuror, sud majlisining kotibi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bilan qarindoshlik munosabatlarida bo'lgan shaxslar.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilishda advokat qaysi idoraga mansublikka e'tibor berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi **MJtK 315-m.da** tegishli qoidalar belgilangan. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan shikoyat sud va yuqori turuvchi idora, yuqori turuvchi mansabdar shaxsga tushgan bo'lsa, uni sud ko'rib chiqadi.

Shikoyat ko'rib chiqilishi natijalariga ko'ra qaror qabul qilinadi.

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil qilmay tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan, xo'jalik-protsessual qonunchilikka muvofiq, xo'jalik sudiga shikoyat qilinadi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan shikoyat ish bo'yicha qaror chiqargan sudyaga, organga, mansabdar shaxsga taqdim etiladi va ular shikoyat kelib

tushganidan keyin 3 sutka ichida uni ishning barcha materiallari bilan birga tegishli sudga, yuqori turuvchi organga, yuqori turuvchi mansabdar shaxsga yuborishi lozim.

Ma'muriy qamoq ko'rinishida ma'muriy jazo tayinlagan sudyaning qarori ustidan shikoyat yuqori turuvchi sudga shikoyat olingan kunda yuborilishi shart.

Shikoyat bevosita uni ko'rib chiqish vakolatiga ega sudga, yuqori turuvchi organga, yuqori turuvchi mansabdar shaxsga taqdim etilishi mumkin.

Agar ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan shikoyat taqdim qilingan sudya, mansabdar shaxs shikoyatni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lmasa, shikoyat idoraga mansublik bo'yicha 3 sutka ichida ko'rib chiqishga yuboriladi.

Qonunda ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha shikoyat topshirish muddati belgilangan. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan shikoyat qaror nusxasi berilgan yoki olingan kundan keyin 10 sutka ichida topshirilishi mumkin.

Agar biror sabablarga ko'ra muddat o'tkazib yuborilgan bo'lsa, u shikoyatni taqdim etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra, sudya yoki shikoyatni ko'rib chiqish huquqiga ega mansabdar shaxs tomonidan tiklanishi mumkin. Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan shikoyat muddatini tinglash to'g'risidagi iltimosnomani rad etish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan shikoyat u barcha ishga oid materiallar bilan sudga, shikoyatni ko'rib chiqish vakolatiga ega organga, mansabdar shaxsga kelib tushganidan keyin o'n kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Ma'muriy qamoq to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat, agar ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ma'muriy qamoq jazosini o'tayotgan bo'lsa, u topshirilgan vaqtdan boshlab bir sutka ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Qonunchilikka ko‘ra, shikoyat bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

1) qarorni o‘zgartirishsiz, shikoyatni qondirishsiz qoldirish to‘g‘risida;

2) qarorni o‘zgartirish to‘g‘risida, agar bunda ma’muriy jazo kuchaytirlmasa yoki boshqa shaklda qaror chiqarilgan shaxsning holati yomonlashmasa;

3) ishning ahamiyatsiz ekanligi yoki avvalda, ish bo‘yicha yurituv qaysi sabablarga ko‘ra to‘xtatilishi yoki umuman boshlanmasligi mumkinligi tushuntirilganda qayd etilgan holatlarda, shuningdek, qaror qabul qilinishiga asos bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligida, qarorni bekor qilish va ish bo‘yicha yurituvni to‘xtatish to‘g‘risida;

4) qarorni bekor qilish to‘g‘risida va ishni qayta ko‘rib chiqish uchun sudyaga, ishni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organa, mansabdar shaxsga qaytarilishi to‘g‘risida, protsessual talablar sezilarli buzilgan taqdirda, agar bu ishni har tomonlama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqish imkonini bermasa, shuningdek, jabrlanuvchi tomonidan qo‘llanilgan ma’muriy javobgarlik jazosining yumshoqligi ustidan shikoyat taqdim etilgan bo‘lsa, ma’muriy jazoning og‘irrog‘i tayinlanishiga olib keluvchi ma’muriy jazo to‘g‘risidagi qonun qo‘llanilishi zaruriyatni tug‘ilganda yuborish to‘g‘risida;

5) agar shikoyat ko‘rib chiqilishida qaror bunga vakolati bo‘lmagan sudya, organ, mansabdar shaxs tomonidan chiqarilganligi aniqlanganda, qarorni bekor qilish va ishni idoraga mansubligiga ko‘ra ko‘rib chiqishga yuborish to‘g‘risida.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda shartnomaga bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida kimlar ishtirok etadi?

2. Ma’muriy sud ishlarini yuritishda vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish tartibini tafsiflang.

3. Ma'muriy sud ishlarini yuritish ishida ishtirok etuvchi shaxslar va ularning vakillari vakolatlarini tekshirish tartibini bayon qiling.

4. Ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi sudda vakil bo'la olmaydigan shaxslarni tavsiflab bering.

KAZUSLAR

1-kazus

“JUST DO IT” advokatlik byurosida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi F. Sodiqovga nisbatan o'z faoliyatida advokaturaga oid qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ygani uchun Toshkent shahar adliya boshqarmasi dastlab qonun buzilishini bartaraf etish to'g'risida taqdimnomha kiritgan edi.

Ko'rsatmada belgilangan qonun buzilishlar byuro tomonidan bartaraf etilmadi. Buning natijasida ko'rsatmani kiritgan organ tomonidan malaka komisssiyasiga murojaat qilindi.

Malaka komissiyasi advokatlik byurosi advokati F. Sodiqovga nisbatan eng kam oylik ish haqining 5 baravari miqdorida ma'muriy jarima qo'lladi.

Mazkur holatga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

2-kazus

Mirzo Ulug'bek tumani ma'muriy sudining 2017-yil 15-noyabr kunidagi qaroriga ko'ra, 1973-yil Toshkent viloyatida tug'ilgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, vaqtincha ishsiz, Toshkent viloyati Qibray tumani Guliston mahallasi, Bog'cha 4-tor ko'chasi, 9-uyda yashovchi Nazarova Dilorom Husanovna O'zbekiston Respublikasi MJtKning 176-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan huquqbazarlikni sodir qilgan deb topilgan. Unga O'zbekiston Respublikasi MJtKning 176-moddasi 2-qismi bilan eng kam oylik

ish haqining 5 (besh) baravari, ya’ni 361.775 (uch yuz oltmis bir ming yetti yuz yetmis besh) so‘m miqdorida jarima jazosi tayinlangan.

Daliliy ashyo sifatida olib qo‘yilgan umumiy narxi 5.000 so‘m bo‘lgan 5 kg un mahsulotlari davlat foydasiga o‘tkazilishi belgilangan.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qiling va apellyatsiya shikoyati loyihasini yozing.

X BOB. ADVOKATNING JINOYAT SUD ISHLARINI YURITISHDAGI ISHTIROKI

Jinoyat sud ishlarini yuritishda advokatning himoyachi sifatida ishtirok etishi, uning huquq va majburiyatlari, himoyachini ishda ishtirok etishi uchun taklif qilish tartibi, uning ishtirok etishi shart bo‘lgan hollar, himoyachidan voz kechish tartibi, shuningdek, himoyachining birinchi va yuqori sud instansiyalarida ishtiroki hamda hukm, ajrim, qarorlarni ijro etishdagi ishtiroki bilan bog‘liq umumiy qoidalarni o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Himoyachi gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining iltimosnomasi bo‘yicha

surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi.

Himoyachi guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek, guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta’minlaydi.

Tanlangan himoyachining yigirma to‘rt soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo‘lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif etish yoki himoyachi tayinlashni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmalariga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi istalgan vaqtida ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir.

Ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini yuridik yordam uchun to‘lovdan batamom yoki qisman ozod etishga haqlidir. Bunday hollarda advokat mehnatiga haq to‘lash xarajatlari Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat hisobidan bo‘ladi.

**To‘liq ma’lumot olish uchun O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 20-iyundagi 137-sonli
“Advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam**

uchun davlat hisobidan haq to‘lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni davlat hisobiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1878, 02.12.2008-y.)ni o‘qish taviya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 51-moddasida himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan hollar belgilangan. Unga asosan quyidagi ishlar bo‘yicha:

- 1) voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha;
 - 2) soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy kasalligi sababli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo‘yicha;
 - 3) sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo‘yicha;
 - 4) jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo‘yicha;
 - 5) shaxslarning manfaatlari o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, ulardan aqallli biri himoyachiga ega bo‘lgan ishlar bo‘yicha;
 - 6) davlat yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo‘yicha;
 - 7) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;
 - 8) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda;
 - 9) apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudi tomonidan ko‘riladigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi shart.
- Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi

mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo‘yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surish-tiruvchi, tergovchi, prokurorning himoyachi tayinlash to‘g‘risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yoxud ajrim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e’tiboran to‘rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta’minlashi shart.

Jinoyat protsessida voyaga yetmagan shaxs deb jinoyat qilgunga qadar o‘n sakkiz yoshga to‘limgan shaxs tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 52-moddasida himoyachidan voz kechish tartibi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ish yuritilayotgan davrda istalgan vaqtida himoyachidan voz kechishga haqlidir. Bunday voz kechishga faqat gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining tashabbusi bilan va himoyachining ishda ishtirok etishiga surishtiruvchi, tergovchi yoki sud tomonidan advokat taklif etish orqali ta’milanadigan real imkoniyatlar mavjud bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi. Bunda advokat o‘z himoyasi ostidagi shaxs bilan xoli uchrashganidan keyin himoyadan voz kechilganligini tasdiqlaydi. Bu haqda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek, advokat, **surishtiruvchi yoki tergovchi imzolaydigan bayonnomma tuziladi yoxud sud majlisi bayonnomasiga yozib qo‘yiladi.**

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasi birinchi qismining 1-4 va 8-9-bandlarida nazarda tutilgan

hollarda himoyachidan voz kechish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud uchun majburiy emas.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasiga muvofiq, dastlabki tergov jarayoni va sudda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari bo‘yicha advokatning ishtirok etishi shart. Mazkur qoida JPKning 52-moddasi talabiga ko‘ra voyaga yetmagan shaxs himoyachidan voz kechganda ham tatbiq etiladi.

Ushbu protsessual qonun talablariga rioya qilmaslik JPKning 487-moddasiga asosan, hukmnинг bekor qilinishiga asos bo‘ladigan jinoyat protsessual qonunning jiddiy buzilishi deb qaralishi kerak.

Himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan hollarda uning ishtirokisiz aniqlangan har qanday dalil yuridik kuchga ega emas.

Himoyachidan voz kechish gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini keyinchalik ishda himoyachi ishtirok etishiga ruxsat berish haqida iltimos qilish huquqidан mahrum qilmaydi. Bunday iltimos barcha hollarda qanoatlantirilishi kerak. Sud tergovi davomida himoyachining ishtirok etishi haqida berilgan iltimosnomalar ishning holatlarini hisobga olib va sudlanuvchiga himoya huquqini ta’minalash manfaatlarini ko‘zlab sud tomonidan hal etiladi. Himoyachining sud majlisi davomida ishga kirishishi sud tergovini qayta boshlash uchun asos bo‘lmaydi.

Himoyachining huquqlari

Himoyachi:

- manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning nimadan gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish;
- advokatlik guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan so‘ng ishda ishtirok etish;

- guman qilinuvchi so‘roq qilinayotganda, ishtirok etish, shaxsga ayblov e’lon qilinayotganda, hozir bo‘lish hamda ayblanuvchi so‘roq qilinayotganda, shuningdek, ularning ishtirokida o‘tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va guman qilinuvchilar, ayblanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislarga savollar berish;
 - boshqa tergov harakatlari yurgizilayotganda, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan ishtirok etish;
 - o‘zi ishtirok etgan tergov harakatining yuritilishi xususida yozma mulohazalar berish; iltimosnomalar berish va rad etish;
 - JPKning 87-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq dalillarni to‘plash va taqdim etish;
 - guman qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o‘tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan, surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo‘lganidan keyin esa jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish;
 - agar himoyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o‘z ichiga olgan axborot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish;
 - sud muhokamasida taraf sifatida ishtirok etish;
 - surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish;
 - sud majlis bayonnomasi bilan tanishish va bu haqda o‘z mulohazalarini bildirish; ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlar to‘g‘risida bilish hamda ularga nisbatan e’tirozlar bildirish;
 - apellyatsiya, cassatsiya va nazorat instansiysi sudi majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.
- Agar guman qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi qamoqda saqlanayotgan yoki uy qamog‘ida bo‘lsa, himoyachi u

bilan jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdar shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlarning soni va davom etish vaqtiga cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli.

Himoyachi o‘z vazifasini amalga oshirishi munosabati bilan bilgan ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Himoyachining majburiyatları

Himoyachi:

gumon yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarni qo‘llashi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko‘rsatishi;

haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi;

ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtidan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 115-moddasi guvoh va jabrlanuvchi sifatida jinoyat ishi yuzasidan o‘z vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida – himoyachini so‘roq qilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi O‘RQ-198-sonli qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi JPKning 66¹-moddasi kiritilgan bo‘lib, unga ko‘ra guvohning advokati belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda unga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo'yicha guvohning advokati bo'lishi mumkin emas.

Guvohning advokati ishda ishtirok etishga u advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va orderni taqdim etganidan so'ng, guvoh chaqirilgan paytdan e'tiboran qo'yiladi.

Guvohning advokati: huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning qaysi jinoyat ishi bo'yicha chaqirilganligini bilish; guvohning so'roq qilinishida, shuningdek, uning ishtiroki bilan o'tkazilayotgan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish, unga qisqa maslahatlar berish; so'roq qilayotgan shaxsning ruxsati bilan guvohga savollar berish; guvohni so'roq qilishda ishtirok etayotgan tarjimonni rad qilish haqida qonunda belgilangan tartibda arz qilish; so'roq tugaganidan so'ng guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risidagi, so'roq bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan arzlarini bayon etish huquqiga ega.

Guvohning advokati: guvohga zarur yuridik yordam ko'rsatishi; dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar orqali haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda va sud majlisi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Jinoyat ishlarini yuritishda advokatning huquqiy maqomi qanday?
2. Jinoyat ishlarida himoyachining ishtirok etishi shart bo'lgan holatlarni tavsiflang.
3. Jinoyat ishlari bo'yicha sndlarda sudlanuvchini himoya qilish uchun bir nechta advokatlar ishtirok etishi mumkinmi? Fikringizni normativ-huquqiy hujjalarni bilan asoslantiring.
4. Jinoyat protsessida himoyachidan voz kechish mumkin bo'limgan holatlari belgilangan. Bundan ko'zlangan maqsad nima?

KAZUSLAR

1-kazus

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani sudining 2013-yil 19-avgust kunidagi hukmiga ko'ra Mamashoyev Azizjon Mahmudovich O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 168-moddasi 3-qismi «a» bandida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybli deb topilgan va unga shu moddaga asosan 6 (olti) yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

Mamashoyev Azizjon Mahmudovichga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senatining 05.12.2012-yildagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining yigirma yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risida»gi qarorining 7-bandi «a» kichik bandi tadbiq etilib, tayinlangan jazo 1/3 qismiga qisqartirilishi belgilangan.

Tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosi umumiy tartibli koloniyalarda o'talishi belgilangan. A. Mamashoyevga nisbatan qo'llanilgan tilxat ehtiyyot chorasi qamoqqa o'zgartirilib, u darhol sud zalidan qamoqqa olingan. Jazo muddati 2013-yil 19-avgustdan boshlab hisoblangan.

Hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng A. Mamashoyevdan jabrlanuvchi L. Rasulov foydasiga 44.000 AQSh dollarini hukm chiqqan kungi O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mga nisbatan qiymatida undirilishi belgilangan.

Mazkur holatni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tahlil qiling va apellyatsiya shikoyati loyihasini yozing.

2-kazus

Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Zangiota tumani sudiga ikkinchi muddatga sudyalik lavozimiga tayinlangan Azizov, faoliyatining uchinchi yili sog'ligi yomonlashgani va oilaviy sharoiti tufayli, o'z ixtiyoriga ko'ra sudyalik lavozimidan ozod etildi. Tibbiy muolajalar natijasida Azizovning sog'ligi tiklanib, u

o‘zining yuridik sohadagi faoliyatini advokat sifatida davom ettirishga qaror qildi. Shunga ko‘ra, Azizov tegishli hujjalarni rasmiylashtirib, Toshkent viloyati Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga taqdim etdi.

Biroq imtihon natijalariga ko‘ra, Azizov malaka imtihonini topshira olmaganligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Qabul qilingan qarordan norozi bo‘lgan nomzod Azizov O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasiga shikoyat bilan murojaat qilib, o‘zining mehnat faoliyati davomida bir necha marta manfaatlari to‘qnashgan advokat Kamilov Advokatlar palatasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining raisi ekanligi, Kamilovning unga nisbatan ichki g‘arazi borligi, ushbu adovat uning malaka imtihoni natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkinligi, imtihon natijalarini bekor qilib, uning advokatlik maqomini olishda amaliy yordam berishni so‘ragan.

Mazkur holatga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda huquqiy baho bering.

3-kazus

1985-yil 18-sentabr kuni Toshkent viloyatida tug‘ilgan, millati o‘zbek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, ma’lumoti o‘rtamaxsus, deputat emas, mukofotlar olmagan, oilali, muqaddam sudlanmagan, Toshkent shahar 2-sonli bolalar jarrohlik klinik shifoxonasida hamshira vazifasida ishlovchi, Toshkent viloyati Zangiota tumani, I. Komilboyev ko‘chasi, 11-uyda istiqomat qiluvchi, ehtiyyot chorasi qo‘llanilmagan, O‘zbekiston Respublikasi JKni 169-moddasining 1-qismi bilan jinoyat ishi JKning 66¹-moddasi talablariga asosan sudga berilgan **Ashirova Xolida Jurabayevnaga nisbatan** dastlabki va sud tergovi jarayonida quyidagilar aniqlandi:

Xolida Jurabayevna Ashirova 2013-yil 13-avgust kuni soat 19:00 larda Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani D. Obidova

ko‘chasida joylashgan Toshkent shahar 2-sonli bolalar jarrohlik klinik shifoxonasi «reanimatsiya» bo‘limi hamshiralar kiyinish xonasida bo‘la turib, shu yerda hamshira bo‘lib ishlovchi Nodira Ravshanbek qizi Isaqovaga tegishli bo‘lgan narxi 300.000 so‘mlik «Nokia-x-2-01» rusumli uyali aloqa telefon apparatini yashirin ravishda talon-toroj qilib, voqeа joyidan yashiringan.

Mazkur holatni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra tahlil qilgan holda himoyachining himoya nutqi loyihasini tayyorlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – **56 b.**
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – **48 b.**
3. Mirziyoyev Sh.M. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi yil arafasida 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvlagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2016-yil 31-dekabr.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. (2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Prezidentimiz tomonidan saylovoldi uchrashuvlarda so‘zlagan nutqlari).

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. /Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 16.10.2018-y., 03/18/498/2051-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 23.01.2018-y., 02/18/FPK/0612-son, 12.10.2018 y., 03/18/496/2043-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 25.01.2018-y., 02/18/IPK/0623-son, 27.07.2018-y., 03/18/488/1579-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son.

4. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son.

5. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son; 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son, 25.07.2018-y., 03/18/487/1569-son.

6. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 30.01.2018-y., 03/18/463/0634-son, 05.04.2018-y., 03/18/470/1005-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son, 21.07.2018-y., 03/18/485/1552-son, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son.

7. “O‘zbekiston Respublikasining Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 1996-yil 27-dekabr 349-I-son.

8. “O‘zbekiston Respublikasining Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 1998-yil 25-dekabr, 721-I-son.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4850-son farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2016-y., 43-son, 497-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4966-son farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-y., 8-son, 109-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagagi “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5482-son farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 14.07.2018 y., 06/18/5482/1506-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagagi “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-son farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

IV. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Yakubov S.A. Стороны в гражданском процессе. – Toshkent: Konsaudition form-Nashr, 2006. – 170 с.
2. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2007. – 539 b.
3. Mamasiddiqov M.M. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligining rivojlanishi. Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent: AQHMI, 2009. – 124 b.
4. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiyligini qism. Darslik. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. O.Okyulov. – Toshkent: TDYuI, 2010. – 534 b.
5. Habibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar). – Toshkent: TDYuI, 2010. – 280 b.
6. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. – Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2010. – 960 b.
7. Fuqarolik ishlari bo'yicha protsessual hujjatlar. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. –Toshkent, 2018. – 280 b.

V. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar. Umumiyligini qism (ilmiy-amaliy sharh) / Mas'ul muharrir: professor B.X. Po'latov. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014. – B. 356.
2. Esanova Z.N. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda ayrim protsessual institatlarning roli // Odil sudlov / Правосудие. 2018-yil 6-sod. – B.21-24.
3. Avezov K.S. Tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlari, ularni himoya qilishning yangi protsessual mexanizmlari amalga joriy etilmoqda. / “Kuch adolatda” gazetasi. 2018-yil 1-mart: 11 (680).

VI. Internet saytlari

1. <http://www.lex.uz>
2. [http://www.norma.uz/uz/parlament_habarlari/sud_qarorlar
ining_ijrosi_parlament_nazoratida.](http://www.norma.uz/uz/parlament_habarlari/sud_qarorlar_ining_ijrosi_parlament_nazoratida)
3. [http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_3448
1/1ccf24dc4a75214c218e316b923f645bd038f706/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/1ccf24dc4a75214c218e316b923f645bd038f706/)
4. [http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_3448
1/c79c18426e70036fa2162a613f22fb70584de91a/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/c79c18426e70036fa2162a613f22fb70584de91a/)
5. <http://huquqburch.uz>
6. <http://www.xs.uz>

ADVOKATURA (DARSLIK)

Muharrir:

Texnik muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:



«Azmir Nashr Print» nashriyoti.
100200, Toshkent shahar, A. Rahmat ko‘chasi, 10-uy.

Bosishga 2020 __-__ ruxsat etildi.
Bichimi 80x108 $\frac{1}{32}$. Ofset qog‘ozi. Times New Roman
garniturasi. Shartli bosma tabog‘i 7,25. Nashr tabog‘i _____.
Adadi 1145 nusxa. Buyurtma raqami 195.

«Azmir Nashr Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, A. Rahmat ko‘chasi, 10-uy.